

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 191 (980), 2023-yil 19-sentabr, seshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news

SAMARALI MULOQOTLARDA KO‘P QIRRALI HAMKORLIKNI
YANADA KENGAYTIRISH ISTIQBOLLARI XUSUSIDA FIKR ALMASHILDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev amaliy tashrif bilan Amerika Qo‘shma Shtatlarida bo‘lib turibdi.

AMERIKA QO‘SHMA SHTATLARIDAGI VATANDOSHLAR
VA “EL-YURT UMIDI” JAMG‘ARMASI STIPENDIATLARI BILAN UCHRASHUV
Nyu-York, 2023-yil 18-sentabr

Prezident Shavkat Mirziyoyev Nyu-York shahriga tashrifi doirasida 18-sentabr kuni o‘ziga ajratilgan qarorgohda Yevropa kengashi Prezidenti Sharl Mishel, “GE HealthCare” kompaniyasining Yevropa, Yaqin Sharq va Afrikadagi prezidenti va bosh ijrochi direktori Rob Uolton, “Oppenheimer” investitsiya kompaniyasi boshqaruvchi direktori Jon Tonelli, “Cerberus” kompaniyasi vitse-prezidenti Brayan Xuk, “CNH” kom-

va sheriklik munosabatlarini mustahkamlashda O‘zbekiston rahbari yetakchi rol o‘ynayotganini qayd etdi.

Samarali xalqaro transport yo‘laklarini, xususan, Transkaspiy multimodal marshrutini rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratildi.

Afg‘onistonda yuzaga kelayotgan vaziyat, shu jumladan, afg‘on xalqiga gumanitar yordam ko‘rsatish borasidagi sa‘y-harakatlar yuzasidan ham fikr almashildi.

loyihalarini amalga oshirish istiqbollari ko‘rib chiqildi.

Jon Tonelli mamlakatimizda sanoat quvvatlarini tashkil etish va modernizatsiya qilish bo‘yicha yirik loyihalarga xususiy investitsiyalarni jalb qilish yuzasidan kelishuvlarga erishilganini mamnuniyat bilan qayd etdi.

Birinchi bosqichda to‘qimachilik klasterlari, qurilish materiallari sanoati

lizing tuzilmalariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri moliyaviy resurslar ajratish rejalari bayon qildi.

Prezidentimiz kompaniyaning O‘zbekistondagi faoliyatini kengaytirish borasidagi rejalari to‘g‘lab-quvvatladi.

“Cintana” kompaniyasi Arizona davlat universiteti bilan hamkorlikda tashkil etilgan bo‘lib, dunyoning 30 mamlakatida faoliyat yuritadi, universitetlarda ta‘lim sifatini oshirish bilan shug‘ullanadi.

kompaniyalari kirgani, ularning umumiy soni 50 taga yetgani ta’kidlandi.

Uchrashuvda AQSH biznesining mamlakatimizdagi faoliyatini kengaytirish borasidagi aniq rejalari muhokama qilindi.

Uchrashuv yakunida qo‘shma loyihalarni amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xarita”larini qabul qilishga kelishib olindi.

“Air Products” kompaniyasi boshqaruvchi raisi, prezidenti va bosh ijrochi direktori Seyfi

Seyfi Gasemiga yuksak davlat mukofoti — “Do‘stlik” ordenini topshirdi.

Xalqaro valyuta fondi boshqaruvchi direktori Kristalina Georgiyeva bilan uchrashuvda global iqtisodiy vaziyat yuzasidan batafsil fikr almashildi. XVF bilan o‘zaro manfaatli hamkorlikni, shu jumladan, joriy yil iyun oyida Samarqand shahrida o‘tgan ikki tomonlama uchrashuvda erishilgan kelishuvlardan kelib chiqqan holda yanada kengaytirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Fond rahbari O‘zbekistonda ortga qaytmis tus olgan islohotlar dasturi natijalariga yuqori baho berdi hamda mamlakatimizdagi samarali yangilanishlarni ilgari surishda yaqindan hamkorlik qilishga tayyorligini bildirdi.

Uchrashuv chog‘ida XVFnig yurtimiz moliya sohasi barqarorligini kompleks tahlil qilish, iqtisodiy siyosatni takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqishda konsalting ko‘magini ko‘rsatish hamda mamlakatimiz idoralari mutaxassislarining salohiyatini yuksaltirish dasturini amalga oshirishdagi ishtirokiga doir masalalar muhokama qilindi.

Amaliy tashrif doirasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Amerika Qo‘shma Shtatlarida yashayotgan va ishlayotgan bir guruh vatandoshlarimiz hamda ushbu mamlakatning yetakchi oliy ta‘lim dargohlarida tashil olayotgan “El-yurt umidi” jamg‘armasi stipendiatlari bilan uchrashdi.

Ochiq va jonli muloqot shaklida o‘tgan tadbirda davlatimiz rahbari Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida so‘zlab berdi, mamlakatimiz modernizatsiyasiga ko‘maklashishda vatandoshlarimizda ulkan salohiyat borligiga e‘tibor qaratdi.

Vatandoshlar va ularni birlashtiruvchi tashkilotlar misli ko‘rilmagan yuqori darajaga chiqqan O‘zbekiston — AQSH hamkorligini rivojlantirishga katta hissa qo‘shayotgani alohida ta’kidlandi.

Davlatimiz rahbari vatandoshlarimiz bilan aloqalarni mustahkamlash, ularning jamoat birlashmalari faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan qator tashabbuslarni ilgari surdi. Xususan,



paniyasi vitse-prezidenti Stiv Naderni, “Cintana” kompaniyasi rahbari Duglas Bekker, Amerika — O‘zbekiston savdo palatasi raisi Kerolin Lemm, “Air Products” kompaniyasi boshqaruvchi raisi, prezidenti va bosh ijrochi direktori Seyfi Gasemi va Xalqaro valyuta fondi boshqaruvchi direktori Kristalina Georgiyeva bilan uchrashuv o‘tkazdi.

Sharl Mishel bilan uchrashuvda O‘zbekiston va Yevropa Ittifoqi o‘rtasidagi ko‘p qirrali hamkorlikni, eng avvalo, siyosiy, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy va gumanitar sohalarida yanada kengaytirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Ikki tomonlama munosabatlarda bugun g‘oyat yuksak darajaga erishilgani alohida mamnuniyat bilan qayd etildi. Yevrokengash rahbarining O‘zbekistonga tashrifi, “YI — Markaziy Osiyo” formatidagi sammitlar, O‘zaro bog‘liqlik bo‘yicha xalqaro konferensiya va iqtisodiy forumlar muvaffaqiyatli o‘tkazildi.

Yil boshidan buyon O‘zbekistonning YI mamlakatlari bilan tovar aylanmasi hajmi 35 foizga oshdi. Yevropaning yetakchi kompaniyalari bilan birgalikda yirik investitsiya loyihalari amalga oshirilmoqda, muhim madaniy tadbirlar uyushtirilmoqda.

Uchrashuv chog‘ida Kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik to‘g‘risidagi bitimni tez fursatda qabul qilish, o‘zaro savdo va investitsiyalarni ko‘paytirish uchun qulay sharoitlar yaratish, iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida kooperatsiyani, shu jumladan, uzoq muddatli ikki tomonlama hujjatlarni qabul qilish orqali chuqurlashtirish masalalari muhokama qilindi.

Yevrokengash Prezidenti Sharl Mishel Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamkorlikni ilgari surish, ishonch, yaxshi qo‘shnchilik

Bo‘ljak ko‘p tomonlama tadbirlar rejasini ko‘rib chiqildi.

“GE HealthCare” kompaniyasining Yevropa, Yaqin Sharq va Afrikadagi prezidenti va bosh ijrochi direktori Rob Uolton bilan uchrashuvda korporatsiyaning mamlakatimizda qo‘shma loyihalarni amalga oshirish borasidagi rejalari muhokama qilindi.

Dunyoning industrial giganti bo‘lgan “General Electric” korporatsiyasi strategik sheriklik doirasida O‘zbekiston korxonalari bilan investitsiyaviy va texnologik hamkorlikni kengaytirish, jumladan, zamonaviy yuqori texnologik uskunalarni yetkazib berish va ularni mahalliyashtirish loyihalarini amalga oshirish niyatida.

“GE HealthCare” kompaniyasi prezidenti Rob Uolton sog‘liqni saqlash sohasida kardiografraflar ishlab chiqarish, skinring va kardio axborot tizimi yo‘lga qo‘yilishini ta’kidladi. Bundan tashqari, investor O‘zbekistonda Milliy tibbiy ma‘lumotlar arxivini yaratishda ishtirok etishni rejalashtirmoqda.

Uchrashuv yakunida qo‘shma loyihalarni amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi”ni qabul qilishga kelishib olindi.

1994-yilda “General Electric” tarkibida tashkil etilgan “GE HealthCare” bosh qarorgohi Chikagoda joylashgan tibbiy texnologiyalar sohasidagi transmilliy kompaniya. Korporatsiya aktivlari qariyb 28 milliard dollarli tashkil etadi.

“Oppenheimer” investitsiya kompaniyasi boshqaruvchi direktori Jon Tonelli bilan uchrashuv ham samarali bo‘ldi.

Aktivlari qiymati 36 milliard dollar bo‘lgan ushbu yirik investitsiya bankining sarmoyasini jalb qilgan holda mamlakatimizda

korxonalarini rivojlantirish, Toshkent shahri infratuzilmasini rivojlantirish loyihalarini moliyalashtirish mo‘ljallangan.

Bundan tashqari, kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlashga investitsiya yo‘naltirish ko‘zda tutilgan.

Prezidentimiz ushbu rejalarni ma‘qullab, mutasaddilarga tez fursatda amaliy ishlarni boshlashga topshiriq berdi.

Uchrashuv yakunida qo‘shma loyihalarni amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi”ni qabul qilishga kelishib olindi.

Aktivlari qiymati qariyb 50 milliard dollar bo‘lgan “CNH” transmilliy kompaniyasi qishloq xo‘jaligi mashinasozligida O‘zbekistonning strategik hamkoridir. Mashhur “Case” va “New Holland” brendlari ostida yo‘l qurish va qishloq xo‘jaligi texnikasini ishlab chiqaradi.

Uchrashuvda vitse-prezident Stiv Naderni kompaniyaning tarmoqdagi bir qator sanoat korxonalarini xususiyashtirish va modernizatsiya qilish, kombayn va paxta yig‘ish mashinalarini ishlab chiqarish hajmini ko‘paytirish, shu jumladan, yuqori quvvatli traktorlar ishlab chiqarish hamda

“Cintana” asoschisi va raisi Duglas Bekker Arizona davlat universiteti bilan hamkorlikda mamlakatimizda Amerika texnologiyalar universitetini tashkil etish ustida ish olib bormoqda.

2024-yildan boshlab sog‘liqni saqlash, injiniring, arxitektura va dizayn kabi yo‘nalishlarda malakali kadrlar tayyorlashni boshlash ko‘zda tutilgan.

Davlatimiz rahbari ushbu rejalarni ma‘qullab, O‘zbekiston ta‘lim sohasidagi loyihalarni amalga oshirish uchun qulay sharoitlar yaratishga tayyorligini bildirdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Amerika — O‘zbekiston savdo palatasi raisi Kerolin Lemm bilan uchrashdi.

Tadbirda “GE HealthCare”, “Oppenheimer”, “Cerberus”, “CNH” va “Cintana” korporatsiyalari rahbarlari ham ishtirok etdi.

O‘zbekiston yetakchisi uchrashuv ishtirokchilarini Amerika — O‘zbekiston savdo palatasi tashkil etilganining 30 yilligi bilan tabriklab, ushbu tuzilma ikki tomonlama savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlikni kengaytirishda muhim o‘rin tutishini alohida ta’kidladi.

Joriy yil 15-sentabr kuni Vashington shahrida AQSHning 250 dan ortiq kompaniya va banklari vakillari ishtirokida o‘tgan qo‘shma biznes-forumining samarali yakunlari katta mamnuniyat bilan qayd etildi.

Palata raisi Kerolin Lemm davlatimiz rahbariga Amerika biznesining mamlakatimizga qiziqishi va ishonchi oshishiga xizmat qilayotgan ortga qaytmis islohotlar dasturini amalga oshirishdagi siyosiy yetakchiligi uchun minnatdorlik bildirdi. Keyingi bir necha yilda palata tarkibiga AQSHning yirik

Gasemi bilan uchrashuvda AQSH Davlat kotibining energetika masalalari bo‘yicha o‘rinbosari Jeffri Payett ham ishtirok etdi.

AQSHning yetakchi kompaniyasi bilan strategik sheriklikni yanada kengaytirish masalalari, joriy loyihalarining boshishi va istiqbolga mo‘ljallangan aniq rejalari ko‘rib chiqildi.

Bugungi kunda yurtimizda “Air Products” tomonidan “Uzbekistan GTL”da sanoat gazlarini qayta ishlash, “Navoiyazot” negizida sintez-gaz, kislorod va azot, suyuqlirilgan karbonat angidrid ishlab chiqarish loyihalari amalga oshirilmoqda.

Keyingi ikki yilda ushbu loyihalarining davomi sifatida kompaniyaning 1 milliard dollardan ziyod to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalari jalb qilindi.

Subhadda ko‘mirni gazlashtirish, texnik gazlar, vodorod va ammoniy ishlab chiqarish hamda achchiq gazlarni utilitatsiya qilish bo‘yicha istiqbolli loyihalar ko‘rib chiqildi.

“Air Products” ekspertlari karbonsizlashtirish sohasida zarur normativ-huquqiy bazani ishlab chiqishda ham qatnashadi.

Bundan tashqari, loyihalar portfelidan oziq-ovqat sanoatiga innovatsion ishlanmalarni joriy qilish o‘rin olgan.

Uchrashuv yakunida “Air Products” kompaniyasining O‘zbekiston uchun qiymati 10 milliard dollardan ziyod bo‘lgan yangi investitsiya dasturini amalga oshirish bo‘yicha kelishuvlar almashildi.

O‘zbekiston — AQSH ko‘p qirrali hamkorligini kengaytirishga qo‘shgan hisssasi va mamlakatimizdagi ortga qaytmis islohotlarni qo‘llab-quvvatlagani uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Air Products” boshqaruvchi raisi

xorijda o‘zbek tili kurslarini tashkil etishga keng ko‘maklashish, vatandoshlar O‘zbekistonning tarixiy shaharlarini ziyorat qilishi uchun maxsus turizm xizmatlari to‘plamlarini ishlab chiqish rejalashtirilgan.

— Biz ta‘lim, tibbiyot, iqtisodiyotda olib borayotgan yangilanishlar natijasini har bir yurtdoshimiz o‘z hayotida his qilishi kerak. Sizlardek xorijda o‘qigan, yirik kompaniyalarda ishlab, tajriba orttirgan yuqori malakali mutaxassislar ham yurtimizga qaytib kelishi va butun salohiyati bilan Yangi O‘zbekistonda barpo etishda ishtirok eta olishlari uchun barcha sharoitlarni yaratishimiz kerak, — dedi Prezidentimiz. — Bugun shu yerdagi har bir o‘zbekistonlikda kuchli Vatan hissi va uning rivojiga hissa qo‘shish ishtiyoqini ko‘rib, juda xursand bo‘ldim. Sizlarni O‘zbekistonda kutib qolamiz.

Uchrashuv ishtirokchilari Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan amalga oshirilayotgan tub va keng ko‘lamli islohotlar xalqimiz farovonligini yanada oshirish, yurtimizning xalqaro maydondagi nufuzini yuksaltirishga xizmat qilayotganini ta’kidladilar.

Katta kompaniyalarda ishlayotgan va nufuzli oliy ta‘lim dargohlarida o‘qiyotgan vatandoshlar o‘z fikr va takliflarini bildirdi. Jamiyat hayoti va iqtisodiyotning turli masalalari yuzasidan fikr almashildi.

Qaratilayotgan katta e‘tibor uchun samimiy minnatdorlik bildirib, vatandoshlar O‘zbekiston rivojiga munosib hissa qo‘shishga tayyorligini ta’kidladilar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Amerika Qo‘shma Shtatlariga amaliy tashrifi davom etmoqda.



BIZ VA DUNYO

O‘ZBEKISTON — AQSH:

IKKI TOMONLAMA VA KO‘P TOMONLAMA MUNOSABATLARNI MUSTAHKAMLASH SARI

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining yalpi majlisidagi ishtiroki doirasida Nyu-York shahrida “C5+1” formatida bo‘lib o‘tadigan birinchi oliy darajadagi sammitda qatnashadi.

“C5+1” formati Markaziy Osiyo davlatlari va AQSH o‘rtasidagi ko‘p tomonlama muloqot platformasidir. Ushbu muloqot 2015-yil noyabr oyida Samarqand shahrida mintaqa davlatlari va AQSH tashqi siyosat idoralari rahbarlarining birinchi uchrashuvida boshlangan edi. Bundan ko‘zlangan maqsad dolzarb masalalar yuzasidan doimiy fikr almashish, shuningdek, mintaqaviy savdoni yaxshilash, transport-energetika aloqalarini mustahkamlash, ishbilarmonlik muhitini rivojlantirish, ekologik muammolarga, ekstremizmga qarshi kurashish, gumanitar aloqalarni kengaytirish bilan izohlanadi.

“C5+1” muloqoti vazirlarining birinchi uchrashuvi yakunlari bo‘yicha Sheriklik va hamkorlik to‘g‘risida qo‘shma deklaratsiya qabul qilingan bo‘lib, unda AQSH-ning Markaziy Osiyo davlatlarining suvereniteti, mustaqilligi va hududiy yaxlitligini qo‘llab-quvvatlashga sodiqligi, shuningdek, ishtirokchi davlatlarning muntazam aloqalarni davom ettirishga tayyorligi qayd etilgan.

Bugungi kunga qadar vazirlarning 12 ta uchrashuvi bo‘lib o‘tdi. 2021-yil sentabr oyida “C5+1” mamlakatlari vazirlari iqlim va atrof-muhit masalalarini muhokama qilish uchun birinchi marta uchrashdilar.

“C5+1” formati doirasida Markaziy Osiyoda xorijiy jangarilarga va radikal-lashuv jarayonlariga qarshi kurashish, tabdirkorlikni va kelajak energetika jabhasini rivojlantirish, transport, savdo yo‘laklarini takomillashtirish hamda iqlim o‘zgarishiga moslashish bo‘yicha milliy rejalarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan loyihalar amalga oshirilmoqda.

Ushbu loyihalar seminarlar, konferensiya va treninglar shaklida hayotga tatbiq

etilmoqda. 2022-yil aprel oyida “C5+1” formatidagi o‘zaro hamkorlikni institutsionalizatsiyalashtirish maqsadida ushbu platforma kotibiyati ish boshladi. Uning asosiy maqsadi “C5+1” formati doirasida o‘zaro hamkorlikni muvofiqlashtirish, o‘tkazilayotgan tadbirlarning tashkiliy masalalarini hal etish, shuningdek, Markaziy Osiyo mamlakatlari va AQSH o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha takliflar tayyorlashdan iboratdir.

“C5+1” doirasida muayyan yo‘nalishlarda o‘zaro hamkorlikni muhokama qilish uchun har yili uch yo‘nalish — iqtisodiyot, atrof-muhitni muhofaza qilish va energetika hamda xavfsizlik bo‘yicha ishchi guruhlarining yig‘ilishlari o‘tkazib kelinmoqda.

Markaziy Osiyo O‘zbekiston tomonidan tashqi siyosatning ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilangani bois, “C5+1” formati doirasidagi o‘zaro hamkorlik muhim ahamiyatga ega. Chunki bu mintaqadagi ijobiy integratsiya jarayonlariga bevosita ta’sir etuvchi muhim omil hisoblanadi.

Shu nuqtayi nazardan mazkur format doirasidagi samarali hamkorlik barobarida O‘zbekiston — AQSH ikki tomonlama hamkorligi izchil mustahkamlanib borayotganini alohida ta’kidlash joiz. O‘zbekiston Prezidentining AQSHga 2018-yil 15-may kunlari bo‘lib o‘tgan birinchi rasmiy tashriifi ikki davlat o‘rtasidagi strategik sheriklikning yangi davriga asos soldi.

So‘nggi olti yilda yuqori darajadagi delegatsiyalar almashuvi, idoralararo va parlamentlararo aloqalar, savdo-iqtisodiy hamda sarmoyaviy hamkorlik faollashdi.

AQSH Kongressi Vakillar palatasida AQSH — O‘zbekiston munosabatlari faollashtirish tafa’dori bo‘lgan

kongressmenlarning norasmiy guruhi — “O‘zbekiston bo‘yicha kokus” tashkil etilgan bo‘lib, u doimiy faoliyat yuritmoqda.

O‘zbekistonda amerikalik investorlar ishtirokidagi korxonalar soni ham yil sayin ortib bormoqda. “General Electric”, “General Motors”, “Hyatt”, “John Deere”, “Boeing”, “Honeywell”, “Coca Cola”, “Calatrava”, “Silverleaf” va boshqa konsern hamda kompaniyalarning mamlakatimizda faol ishlamayotgani muvaffaqiyatli iqtisodiy hamkorlikka misol bo‘la oladi.

Qo‘shma Shtatlar O‘zbekistonning inson huquqlarini himoya qilish sohasida erishgan muvaffaqiyatlarini ham e’tirof etadi. Mamlakatimizda amalga oshirilgan tub islohotlar tufayli “Cotton Campaign” xalqaro nodavlat tashkilotining o‘zbek paxtasiga qo‘yilgan boykoti bekor qilindi.

Bugungi kunda AQSHda O‘zbekistonning minglab fuqarolari ishlab, tahsil olmoqda. Ular o‘z urf-odatlari va madaniyatini avaylab-asrash, diaspora va madaniy uyushmalar doirasida yaqindan muloqot qilish imkoniga ega.

Toshkent va Sielt, Buxoro va Santa-Fe, Zarafshon va Klinton shaharlari o‘rtasida o‘rnatilgan birodarlik aloqalari madaniyatlararo muloqotni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Muxtasar aytganda, O‘zbekiston — AQSH munosabatlari izchil rivojlanib bormoqda. O‘zbekiston bu hamkorlikni nafaqat ikki tomonlama, balki ko‘p tomonlama formatda ham kengaytirish va mustahkamlashdan manfaatdor.

14-sentabrda Dushanbada Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining maslahat uchrashuvi bo‘lib o‘tdi. Bugun esa mintaqada davlatlari rahbarlari Markaziy Osiyo salohiyatini mustahkamlash va uning ravnaqi yo‘lida AQSH bilan hamkorlikni yanada rivojlantirish masalalarini muhokama qilishga tayyordir.

“Dunyo” AA



O‘ZBEKISTON STRATEGIYASI — 2030

RIVOJLANISHNING FUNDAMENTAL ASOSLARI

Eldor TULYAKOV,
“Taraqqiyot strategiyasi” markazi ijrochi direktori

2023-yil 11-sentabr O‘zbekistonning yangi rivojlanish davrida taraqqiyotning keyingi bosqichiga o‘tish uchun asos bo‘luvchi muhim hujjat qabul qilingan kun sifatida yodda qoladigan bo‘ldi. Boisi, shu kuni Prezidentimizning “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilindi. E’tiborli va e’tirofli jihati, 5 ta ustuvor yo‘nalish bo‘yicha 100 ta muhim maqsad o‘z aksini topgan strategiya orttirilgan tajriba, xalqaro ekspertiza va jamoatchilik muhokamasi natijalari asosida ishlab chiqildi.

Ta’kidlash joizki, strategiya barqaror iqtisodiy o‘tish orqali daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoridan o‘rin olish, aholi talablari va xalqaro standartlarga to‘liq javob beradigan ta’lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish, aholi uchun qulay ekologik sharoitlar yaratish, xalq xizmatidagi adolati va zamonaviy davlat barpo etish, mamlakatning suvereniteti va xavfsizligini kafolatli ta’minlash kabi asosiy g‘oyalarni o‘z ichiga olgan.

Mazkur yo‘nalishlar doirasida kelgusi yetti yilda iqtisodiyot hajmini ikki barobar oshirish, xususan, yalpi ichki mahsulot hajmini 160 milliard dollar, aholi jon boshiga daromadlarni 4 ming dollarga yetkazish, makroiqtisodiy barqarorlik

tibbiy xizmatlarni yanada yaqinlashtirish borasidagi islohotlar natijasida 350 ming nafar diabet va 1,5 million yurak-qon tomir kasalligi bor bemorlar davolash bilan to‘liq qamrab olinadi. Go‘daklarda irsiy kasalliklar bo‘yicha selektiv skrining tekshiruvlar qamrovi kamida 50 foizga oshiriladi. Natijada bolalar o‘rtasida irsiy kasalliklar 2 barobar qisqaradi.

Kelgusi yillarda go‘daklarni mikronutriyent kukuni, yosh bolalarni gelmintoz profilaktikasi bo‘yicha maxsus preparatlar, yod, xotin-qizlarni polivitamin, temir va foliy kislotasi bilan bepul ta’minlash ishlari rivojlantiriladi. Natijada yuqumli va yuqumli bo‘lmagan kasalliklarning tarqalishi 20 foizga qisqarishiga erishiladi.

Bu davrda tibbiy yordamga muhtoj

“

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasi mamlakatimiz rivojining muhim fundamental asoslarini o‘zida qamrab olgan faoliyatimizning ustuvor vazifalarini belgilab beradi. Xalqaro hamjamiyatning ko‘z o‘ngida davlatimiz mavqei va obro‘sinini yanada mustahkamlash, inson qadrlini ulug‘lashga xizmat qiladi.

hamda iqtisodiy rivojlanishni zarur darajadagi energetika, suv va infratuzilma resurslari bilan ta’minlash, mamlakatda qulay investitsiya va ishbilarmonlik muhitini rivojlantirish maqsad qilingan.

Shuningdek, hujjatga ko‘ra, aholiga

aholi murojaatlarining 70 foizini birlamchi bo‘g‘inning o‘zidayoq hal qilishni yo‘lga qo‘yish rejalashtirilgan.

Mamlakatimizni rivojlantirishga qaratilgan strategik hujjatlar va olib borilayotgan islohotlar samarasi o‘laroq,



TASHABBUSLI BUDJET

ODAMLARNI UYG‘OTGAN VA BIRLASHTIRAYOTGAN LOYIHA

Abdurauf QORJOVOV,
iqtisodiy sharhlovchi

O‘tgan hafta oxirida “Tashabbusli budget”ning bu yilgi ikkinchi mavsumi g‘oliblari e’lon qilindi. G‘olib bo‘lgan hududlarda yashovchi odamlar g‘alabani xuddi katta bayram kabi nishonladi. Ular ko‘chalarda to‘planib, karnay-surnay hamda jo‘shqin musiqalar sadosiga esa raqsga tushdi, bir-birini qutladi. Chunki ular birdamlik bilan misqollab ovozlari yig‘di va samarasini ko‘rdi.

Bu jarayon 2019-yildan buyon Iqtisodiyot va moliya vazirligining “Ochiq budget” portalidagi “Tashabbusli budget” va “Mening yo‘lim” bo‘limlari orqali amalga oshirib kelinyapti. Ushbu elektron tizimlar yordamida fuqarolar mahallalarda infratuzilmani yaxshilash, xiyobonlar, bolalar va sport maydonchalarini, ichki yo‘llarni qurish, ular yoritilishini ta’minlash, bog‘cha, maktablarni ta’minlash va jihozlash kabi masalalar bo‘yicha loyihalarni taklif qilib, ovoz berish yo‘li bilan mahalliy budgetning taqsimlanishida ishtirok etishi uchun imkoniyat yaratilgan.

Bu yilgi “Tashabbusli budget”ning ikkinchi mavsumiga 17-iyul kuni start berildi va 15-sentabrda ovoz berish jarayoni yakuniga yetdi. Har biri 20 kun davom etadigan amaldagi jarayonga ko‘ra, uning dastlabki bosqichida fuqarolar o‘z takliflarini ilgari surdi, ikkinchisida mazkur takliflar moderatsiyadan o‘tkazildi, ya’ni saralandi. Uchinchisida saralangan takliflar ovoz berishga qo‘yildi. Ovoz berish jarayoni yakunlariga ko‘ra, har bir hududda eng ko‘p ovoz to‘plagan takliflar g‘olib deb topiladi va ular berilgan ovozlardan sonidan kelib chiqib, yuqoridan pastga qarab saralab olinadi hamda loyihaga mo‘ljallangan mablag‘dan kelib chiqqan holda moliyalashtiriladi.

— Prezidentimizning shu yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini 2023-yilda sifatlari va o‘z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida 2024-yil 1-yanvardan boshlab bosqichma-bosqich barcha shahar va tumanlarda “Mahalla budjeti” tizimini joriy etish vazifasi qo‘yilgan, — deydi Toshkent moliya instituti dotsenti Abdurahmat Boymurodov. — Bunda tuman va shahar budgetlariga tushadigan

soliq tushumlarining bir qismi mahallalarning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal qilish jamg‘armalariga yo‘naltirilishi belgilandi.

“Tashabbusli budget” amaliyotini va mahallalarning moliyaviy mustaqilligini yanada kengaytirish maqsadida 2024-yilda jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan loyihalarni moliyalashtirish uchun davlat budgetidan 10 trillion so‘m, shundan “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlari uchun kamida 4 trillion so‘m yo‘naltiriladi.

Mamlakatimiz aholisi 36 milliondan ortiq bo‘lsa, 20 milliondan ziyodi ovoz berish huquqiga ega. “Tashabbusli budget”ning joriy yil birinchi mavsumidagi ovoz berishda 16 million 129 ming 764 fuqarolar ishtirok etgan. Bu jami aholining qariyb 45 foizi demakdir. Ikkinchi mavsumda esa tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlab 18 million 115 ming 86 ta ovoz berilgan. Demak, jarayonda yurtimiz aholisining ellik foizi qatnashgan.

Taqoslaydigan bo‘lsak, 2021-yilda o‘tkazilgan ovoz berish jarayonida 1,1 million fuqaro qatnashgan bo‘lsa, 2022-yilning dastlabki mavsumida ular soni 6,7 milliondan ziyodroq bo‘lgan edi.

Bu ko‘rsatkichlar aholining “Tashabbusli budget”dan joy olgan loyihalariga daxldorligi, jarayonning xolis va oshkora o‘tishiga, g‘olib chiqqan takliflarning qisqa fursatda amalga oshishiga bo‘lgan ishonchini yaqqol namoyon etib turibdi.

Tahlilchilarning bildirishicha, so‘nggi 30 yil ichida mamlakatimizda aholini burchalik darajada qamrab olgan ijtimoiy voqeelik kuzatilmoqda.

Iqtisodiyot va moliya vazirligi matbuot xizmati ma’lumotlariga ko‘ra, joriy yil ikkinchi mavsum uchun o‘tkazilgan tanlovda 1 ming 12 ta mahalladan 1 ming 187



“**Prezidentimiz shu yil 12-sentabr kuni yo‘l xo‘jaligi tizimini isloh qilish masalalari bo‘yicha o‘tkazilgan yig‘ilishda endi ichki yo‘llarni qurish va ta‘mirlash uchun budget mablag‘lari faqat “Ochiq budget” platformasidagi “Mening yo‘lim” dasturi orqali ajratilishi yuzasidan ko‘rsatma berdi.**

loyiha g‘olib bo‘ldi. Ajratilgan mablag‘ning umumiy miqdori 1 trillion 314 milliard 565 million 965,5 ming so‘mni tashkil etadi. Eng yuqori natijani 20 ming 120 ovoz bilan Andijon viloyati Baliqchi tumani “Sherobod” mahalla fuqarolar yig‘inidagi mustaqillik ko‘chasiga asfalt qoplamasi yotqizish loyihasi (1 milliard 320 million so‘m) qayd etdi.

Ilgari surilgan takliflarning 15 ming 140 tasi (31 foiz) ichki yo‘llar, 14 ming 835 tasi (30 foiz) mahalla hududi

дини obodonlashtirish, 6 ming 820 tasi (14 foiz) maktablar, 3 ming 24 tasi (6 foiz) bog‘chalar, 3 ming 100 tasi (6 foiz) tibbiyot muassasalarini ta’minlash bo‘yicha bo‘ldi. G‘olib loyihalar orasida ichki yo‘llarni (piyodalar yo‘lakchasi, yo‘l o‘tkazgichlar) ta’minlash borligi (446 ta) eng og‘irliq yo‘nalish hali-hamon shu soha ekanini ko‘rsatadi.

Xususan, “Mening yo‘lim” loyihasi bo‘yicha o‘tkazilgan bu yilgi ovoz berish

bolalarning maktabgacha ta’lim bilan qamrovi so‘nggi 5 yilda 27 foizdan 72 foizga yetdi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari soni 5 ming 211 tadan 29 ming 420 taga oshdi. Mazkur sa’y-harakatlar “O‘zbekiston — 2030” strategiyasining tegishli maqsad va ko‘rsatkichlarida ham aks etgan. Unga muvofiq, maktabgacha ta’lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish hamda qamrov darajasini 100 foizga yetkazish ko‘zda tutilgan.

E’tirof etish kerakki, o‘tgan yillarda xalq bilan muloqot qilish, inson dardi, muammolarini samarali, ijobiy va tezkor hal etish bo‘yicha yangi tizim yaratildi. Xususan, davlat organlarining aholi bilan bevosita muloqoti yo‘lga qo‘yildi. Bu aholining davlat organlariga nisbatan munosabatini o‘zgartirmoqda, faollik, islohotlarga bo‘lgan ishonchini kuchaytirmoqda. Eng muhimi, fuqarolar tomonidan davlat organlari oldiga masala qo‘yish imkoniyati ortib bormoqda.

Ana shu sa’y-harakatlarning davomi sifatida “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha Respublika komissiyasi tashkil etildi. Komissiya strategiya doirasidagi islohotlar bo‘yicha tadbirlarning aholi tomonidan bildirilgan fikr va tashabbuslar asosida sifatlari amalga oshirilishi, belgilangan ko‘rsatkichlarga erishilishini nazorat qilib boradi.

Shuningdek, strategiyadagi maqsad va ko‘rsatkichlarning izchil, sifatlari va o‘z vaqtida bajarilishi yuzasidan samarali jamoatchilik nazoratini o‘rganish maqsadida maxsus onlayn portalni ishga tushirish ham rejalashtirilgan.

“Taraqqiyot strategiyasi” markazi tomonidan yuritiladigan ushbu portal orqali yurtdoshlarimiz strategiyaning ijrosi, shuningdek, har bir maqsad va ko‘rsatkichlar yuzasidan o‘z fikr-mulohazalarini qoldirish hamda takliflarini bildirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

“Taraqqiyot strategiyasi” markazi aholi tomonidan bildirilgan taklif va tashabbuslarni o‘z vaqtida umumlashtirib, tahlil qiladi, chora-tadbirlarning ijrosi bo‘yicha tizimli monitoring yuritib, natijalarini har oyda Respublika komissiyasiga kiritib boradi.

Xulosa o‘rinda aytadigan bo‘lsak, “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi mamlakatimiz rivojining muhim fundamental asoslarini o‘zida qamrab olgan faoliyatimizning ustuvor vazifalarini belgilab beradi. Xalqaro hamjamiyatning ko‘z o‘ngida davlatimiz mavqei va obro‘sinini yanada mustahkamlash, inson qadrlini ulug‘lashga xizmat qiladi.

— Aslida, bundan to‘rt yil oldin bunday imkoniyat va ko‘rsatkichlarni tasavvur etib bo‘lmas edi, — deydi huquqshunos Shokir Toshqulov. — Qolaversa, aholi kundalik hayot tarzi bilan bog‘liq masalalar yechimiga ajratilgan mablag‘lar kerakli manzilga yetib bormasligi, bu borada ular ishtiroki va nazoratining yo‘qligi muammolar to‘planib qolishiga sabab bo‘lardi. Ya’ni har bir soliq to‘lovchi o‘z “burchi”ni bajarradi, ammo budget, ayniqsa, mahalliy budget mablag‘larining qayoqqa va qanday sarflanishidan bexabar qolardi. Ularni taqsimlashdagi jamoatchilik ishtiroki va nazorati haqida gapirmasa ham bo‘ladi.

Endi odamlar shu jarayonda bevosita o‘z ishtiroki etyapti. Eng muhimi, ular bunday loyihalariga daxldor bo‘lib, bunyod qilingan infratuzilmadan faxrlanib, ularni asrab-avaylab foydalanayapti. Aholining “Tashabbusli budget” loyihasiga va uning shaffoqligiga ishonchi katta. Chunki uzoq yillar davomida hal etilmay kelingan joylardagi ijtimoiy muammolar qisqa muddatda yechimini topyapti, hamjihatlikda ko‘tarilgan va ovoz berilgan takliflar natijasidan o‘zlari bahramand bo‘lyapti.

Haqiqatan, “Ochiq budget” loyihalari ko‘lami tobora kengayib, uning har bir jarayoniga ajratilayotgan mablag‘ miqdori ham ortib boryapti. Shunga qaramay, bu jarayon ayrim muammo va kamchiliklardan xoli emas. Xususan, fuqarolar tomonidan turli telefon raqamlari bilan “foydalanuvchilar” xaxirasini shakllantirish va ovozlari sonini ko‘paytirish holatlari kuzatilayapti.

Xullas, eski “hangomalar” yana takrorlandi. Xiyobon, ko‘cha va bozorlarda ovoz berish evaziga oziq-ovqat mahsulotlari yoki pul taklif qilish holatlari yana kuzatildi. Bunday holatlar iqtisodiyot va moliya vazirligi zimmasiga yuklatilgan “Ochiq budget” loyihasiga dori jarayonlarni xolis ovoz berish, ma’muriy aralashuvlarsiz tashkil etish bo‘yicha vazifalar to‘liq hal etilmayotganidan, zamonaviy texnologiyalardan oqilona foydalanishni va ularni takomillashtirib borishni taqozo etayotganidan dalolat beradi.

Qolaversa, har bir loyihaga ovoz berish jarayoni fuqarolarning ijtimoiy omil bilan chambarchas bog‘liq. Har birimiz ixtiyoriy ovoz berish huquqiga egamiz. Undan xolis va haqqoniy foydalanish o‘zimizga havola etilayotgan, buning uchun barcha sharoitlar yaratilayotgan ekan, ovoz berishda ham uyg‘oq bo‘laylik. Shunda obodlikka yuz tutgan ko‘cha, maktab va bog‘chaning ham qadr-qimmatini baland bo‘ladi.



DOLZARB MAVZU

WORLD
RESOURCES
INSTITUTE

Jahon tabiiy resurslar instituti (World Resources Institute) va Buyuk Britaniyaning "Economist Intelligence Unit" tashkiloti tadqiqotlariga ko'ra, 2040-yilga borib, suv tanqisligiga eng ko'p uchrashi taxmin qilinayotgan 33 davlat orasida Markaziy Osiyo mamlakatlari, xususan, O'zbekiston ham bor. Mutaxassislar fikricha, 2050-yilgacha suv resurslari yurtimizning asosiy suv manbai hisoblangan Sirdaryo havzasida 5 foizgacha, Amudaryo havzasida esa 15 foizgacha kamayishi mumkin. Demak, bularning barchasi yuqorida qayd etib o'tganimizdek, yil sayin qurg'oqchilik kuchayib, suv tanqisligi muammosi ortib borayotgani va bu jarayon davom etishidan dalolat beradi.

Jarayon

YANGI O'ZBEKISTON



“TEKIN”DAN “TILLO”GA TENGLASHAYOTGAN RESURS

MUAMMONING KO'LAMI QANDAY, IQTISODIYOTGA TA'SIRI-CHI, YECHIM NIMADA?

Avazbek XUDOYQULOV,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri



Bugun kundalik hayotimiz, turmushimiz farovonligi, iqtisodiy taraqqiyotga erishishda uch asosiy muammoli holat – energetika barqarorligiga erishish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash hamda global iqlim o'zgarishi tufayli yuzaga kelgan suv taqchilligi yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Buni shu yil 7-8-sentabr kunlari Samarqand shahrida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga bag'ishlangan xalqaro konferensiya o'tkazilgani, 14-15-sentabr kunlari esa Tojikiston poytaxti Dushanbe shahrida o'tkazilgan Markaziy Osiyo davlatlari

rahbarlarining beshinchi maslahat uchrashuvi hamda Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi ta'sischi davlatlari rahbarlari kengashi majlisida ushbu masalalar asosiy muhokama mavzusi bo'lgani misolida ham ko'rish mumkin.

Aslida, bularning qay darajada muhimligini bilish uchun hatto ularga doir statistika ham shart emas. Shunchaki yon-atrofingizga qarang, o'zgarishlarga razm soling: yurtimiz aholisi soni oshyapti, minglab yangi turar joylar, ijtimoiy soha obyektlari, yangidan-yangi ishlab chiqarish quvvatlari barpo etildi va bu jarayon davom etmoqda. Demak, yurtdoshlarimiz hamda tadbirkorlik subyektlarining elektr energiyasi, oziq-ovqat mahsulotlari va albatta, suvga talabi ham tabiiy ravishda oshmoqda.

Shu bois, ayni yo'nalishlarda, avvalo, aholi ehtiyojlarini ta'minlash, talabga nisbatan taklifni oshirish orqali eksportni kengaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mutaxassislar hisob-kitoblariga ko'ra, yurtimizda quyosh energetikasining texnik sa'lohiyati unga bo'lgan ehtiyojdan 4 barobar, quyosh energiyasini ishlab chiqarish salohiyati esa 8 barobar ko'p. Quyosh elektr stansiyalarini qurish orqali 600 milliard kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqarish imkoniyati mavjud.

Mana shu kabi tabiiy ne'matdan samarali foydalanish, tobora ortib borayotgan ehtiyojini to'liq va uzluksiz qanoatlantirish maqsadida muqobil energetika — shamol, quyosh va suv oqimlari imkoniyatlaridan samarali foydalanish bo'yicha yirik loyihalar amalga oshirilmoqda. Yirik daryo va kanallarda katta va kichik GESlar barpo etilayotgan bo'lsa, deyarli barcha hududlarda shamol va quyosh fotoelektr stansiyalari qurilyapti. Shuningdek, davlat idoralari va ijtimoiy soha obyektlari, aholi nonadonlarida ham quyosh panellaridan foydalanish ommalashyapti.

Quyosh elektr stansiyalari tomonidan 2015-yilda 0,003 kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqarilgan bo'lsa, 2022-yilda bu ko'rsatkich 445,7 million kilovatt-soatga yetdi.

Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash borasidagi ishlar ham tahsinga sazovor. Binobarin, yerning meliorativ holatini yaxshilash, seleksiya, umuman, agrar sektordagi islohotlar samarasi o'laroq, yuqori hosildorlikka erishilmoqda. Jumladan, 2017-yilda 1 million 133 ming gektarda parvarishlangan boshog'li don ekinlaridan 6,4 million tonna hosil olingan bo'lsa, 2022-yilda ekin maydoni 101 ming gektarga qisqargani holda yalpi hosil 800 ming tonnaga ko'paygan. Boshqacha aytganda, gektariga o'rtacha hosildorlik 69,7 sentnerga yetib, yetti yilda 13 sentnerdan ziyodroqqa oshdi.

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklarida ham o'sish kuzatildi. Xususan, ushbu yo'nalishlarda ishlab chiqarilgan mahsulotlar qiymati aholi jon boshiga 2017-yildagi 4,8 million so'mdan 2022-yilda 10,2 million so'mgacha ko'tarilgan. Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi so'nggi 6 yilda 2,4 barobar ortgan.

Tanqislik ko'lami va uning zarari ortib boraveradi

Ochig'i, har ikki yo'nalishdagi ishlar va ularning samaralari haqida uzoq gapirish mumkin. Lekin mavzumiz suv tanqisligi bo'lgani uchun bularga atroficha to'xtalmadik.

Nega aynan suv tanqisligi mavzusi, degan savolga keladigan bo'lsak, buning yechimi yuqoridagi ikki yo'nalishdan bir oz

murakkabroq. Birinchidan, elektr energiyasi bo'yicha oshib borayotgan ehtiyoj “yashil” energetikani rivojlantirish, oziq-ovqat mahsulotlariga talab esa hosildorlikni oshirish orqali qoplayapti. Ikkinchidan, har ikki yo'nalishda istiqbol imkoniyatlari nisbatan keng. Aytaylik, yurtimizda umumiy uzunligi 12,7 ming kilometr bo'lgan 430 ta katta-yu kichik daryo bor. Oqim salohiyatidan kelib chiqib, katta-kichik GESlar qurish orqali qancha “yashil” energiya hosil qilish mumkin. Quyoshdan olinishi mumkin bo'lgan elektr energiyasi hajmi naqadar kattaligini esa yuqorida aytib o'tdik.



Umuman, shamol energetikasi yoki agrar tarmoq imkoniyatlari haqida ham shunday fikr bildirish, asosli faktlarni misol keltirish mumkin.

Suv masalasida esa bunday deiysh bir oz mushkul. Prezidentimiz Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi ta'sischi davlatlari rahbarlari kengashi majlisida qayd etganidek, “Markaziy Osiyoda suv taqchilligi muammosi o'tkir va muqarrar tus oldi hamda bundan buyon u tobora chuqurlashib boraveradi.

Eksptlar hisob-kitoblariga ko'ra, Markaziy Osiyoning ayrim mintaqalarida 2040-yilga borib, suv resurslariga ehtiyoj uch barobar oshadi. Vaqt o'tishi bilan iqtisodiy zarar yalpi mintaqaviy mahsulotning 11 foiziga yetishi mumkin.

BMT ma'lumotiga ko'ra, hozirning o'zidayoq mintaqa davlatlari suv resurslari taqchilligi va undan samarasiz foydalanish oqibatida yiliga 2 milliard dollargacha mablag' yo'qotmoqda”.

Muzliklar erishi jadallashib, suv zaxiralari kamayib borayotgan murakkab sharoitda yaqin va o'rta istiqbol, kelajak uchun puxta o'ylangan rejalar tuzish va uni tizimli amalga oshirish juda katta ahamiyatga ega. Chunki mintaqada suv tanqisligi muammosi yildan-yilga kuchayib borishi muqarrar. Zero, dunyo ekspertlari ham, yurtimiz suv xo'jaligi mutaxassislari ham buni hisob-kitob qilgan.

Jumladan, suv xo'jaligi vaziri o'rinbosari Rustam Qarshiyevning aytishicha, so'nggi 15 yilda yog'ingarchilik miqdori 25 foiz qisqargan. Yoz faslida esa jazirama kunlar davomiyligi ortgan.

Jahon tabiiy resurslar instituti (World Resources Institute) va Buyuk Britaniyaning “Economist Intelligence Unit” tashki-



loti tadqiqotlariga ko'ra, 2040-yilga borib, suv tanqisligiga eng ko'p uchrashi taxmin qilinayotgan 33 davlat orasida Markaziy Osiyo mamlakatlari, xususan, O'zbekiston ham bor. Mutaxassislar fikricha, 2050-yilgacha suv resurslari yurtimizning asosiy suv manbai hisoblangan Sirdaryo havzasida 5 foizgacha, Amudaryo havzasida esa 15 foizgacha kamayishi mumkin. Demak, bularning barchasi yuqorida qayd etib o'tganimizdek, yil sayin qurg'oqchilik kuchayib, suv tanqisligi muammosi ortib

shi bo'yicha “Tolbon” tomonidan 6 ta variant tayyorlangan. O'zbekiston ularning barini chuqur o'rganib chiqqan.

Variantlarning birida 120 ming gektar yer o'z oqimi bilan suv ichishi ko'rsatilgan. Yana birida 225 ming gektar ko'rsatilgan. 600 ming gektar to'g'risida gap yo'q, unday bo'lmaydi. Biz o'rganigan variantlar bo'yicha taxminan 225 ming gektar o'z oqimi bilan bo'lishi mumkin. Uchinchi variant — yana 50 ming gektar yer nasos bilan sug'oriladi, shunda taxminan 300 ming gektarcha sug'oriladigan yer hosil bo'ladi”.

Vazirning qo'shimcha qilishicha, buncha yerni sug'orish uchun 4-5 milliard kub metr suv yetadi. O'zbekiston mana shu miqdor saqlanib qolishiga intiladi.

Shavkat Hamroyev bu miqdorning asosli ekaniga quyidagicha izoh bildirdi: “Agar o'sha kanal 300 ming gektarni sug'oradigan bo'lsa, 12 milliard kub metr suv oladi, desak ham, bu har bir gektar uchun 40 ming kub metrdan to'g'ri kelishini anglatadi. Vaholanki, 1 gektar yer 40 ming kub metr suv icholmaydi. Biz sholi ekib, suvni bostirib sug'oranimizda ham 1 gektarga 30 ming kub metr suv ketadi. Birinchidan, Afg'onistonda yoz foiz sholi ekilmaydi. Ikkinchidan, agar Afg'oniston 5 yil birinchi daraja ishlarni qilsa, boshqa ekinlar, kanallarning o'tkazish qobiliyati va boshqasidan kelib chiqib, taxminan 4 milliard kub metr atrofida suv oladi”.

Mutaxassislar fikricha, hozir Amudaryoda har yili taxminan o'rta 60 milliard kub

66

“O'zbekiston — 2030” strategiyasiga muvofiq, suv ishlatish samaradorligi 25 foiz oshirilib, qishloq xo'jaligi ekinlarini sug'orishda suv tejaydigan texnologiyalar bilan qamrab olingan yerning umumiy maydoni 2 million gektargacha, jumladan, tomchilab sug'orish texnologiyasi 600 ming gektargacha, ushbu maqsadlarga erishish uchun esa suv tejovchi texnologiyalarni ishlab chiqaruvchi mahalliy korxonalarning yillik quvvati 300 ming gektarga yetkaziladi.

borayotgani va bu jarayon davom etishidan dalolat beradi.

Qo'shtepa kanali Amudaryodan qancha suv oladi?

Qo'shni Afg'onistonda Amudaryodan suv oluvchi Qo'shtepa kanali qurilishi boshlangan. Ma'lumotlarga ko'ra, kanal qurilishi taxminan 684 million dollarga baholanmoqda. Uzunligi 285 kilometr, kengligi 100 metr, chuqurligi 8,5 metрни tashkil etuvchi kanalning Amudaryodan qancha miqdorda suv olishi haqida esa turli taxminlar bildirildi. Jumladan, ijtimoiy tarmoqlarda Afg'oniston tomonining mazkur kanalni qurishdan maqsadi Balx, Juzjon va Faryob viloyatidagi 550-600 ming gektar yerni sug'orish ekanini, buning uchun esa Amudaryodan 10-13 milliard kub metr suv olishi mumkinligi haqida xabarlar tarqaldi.

Xo'sh, ushbu taxminiy fikr va mulohazalar haqiqatga qanchalik mos keladi? Kanallarning yurtimiz sug'orish tizimiga ta'siri qanday? Ayni savollarga suv xo'jaligi vaziri Shavkat Hamroyev mavzuga doir matbuot anjumani-da quyidagicha javob bergandi: “Amudaryodan suv oluvchi Qo'shtepa kanalining qurili-

metr suv shakllanmoqda. Qo'shtepa kanali qurilishi esa o'zi shundoq ham muammo bo'lib turgan suv tanqisligini yanada kuchaytiradi. Lekin boshqa tomondan, Afg'oniston ham Amudaryo suvidan foydalanmoqchi.

Prezidentimiz Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi ta'sischi davlatlari rahbarlari kengashining Dushanbada o'tgan majlisida bu masalaga ham alohida to'xtalib, quyidagicha fikr bildirdi:

“...Mintaqamizda suvdan foydalanish jarayonida bizning mamlakatlarimiz bilan hech qanday majburiyat asosida bog'lanmagan yangi ishtirokchi paydo bo'ldi.

Afg'on tomoni kanalni qurish bo'yicha faol ish olib borayotganini yaxshi bilasiz.

Uning ishga tushirilishi Markaziy Osiyodagi suvdan foydalanish tartibi va muvozanatini tubdan o'zgartirib yuborishi mumkin.

Qo'shtepa kanalining qurilishi va uning Amudaryo suvidan foydalanish tartibiga ta'siri bilan bog'liq barcha jihatlarini mamlakatlarimizdagi tadqiqot institutlarini jalb etgan holda o'rganish bo'yicha qo'shma ishchi guruh shakllantirish zarur, deb hisoblaymiz.

Afg'oniston vakillarini suv resurslaridan

birgalikda foydalanish bo'yicha mintaqaviy muloqotga jalb etish masalasini ko'rib chiqishni taklif etamiz”.

Yagona yechim – tejamkorlik

Suv kamayishi faqat dehqonchilikda qiyinchilik tug'dirmaydi. Bu muammo bevosita mintaqa gidrologiyasi va atrof-muhit landshaftlariga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ya'ni yashil maydonlar kamayadi. Yer osti suvi sathi pastlashi natijasida quduqlardan suv olishda muammolar paydo bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida, suv sarfi oshishiga olib keladi, soddaroq aytganda, avval 10 kub metr suv bilan qoniqqan dalalarni sug'orishda endi 15 kub metr suv talab etiladi.

Bilvosita esa chorvachilik, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, qayta ishlash, to'qimachilik sanoati kabi ko'plab sohalarga ham salbiy ta'sir ko'rsatib, agrar soha va aholi turmush darajasi yomonlashuvi, eksport kamayishi, inflyatsiya oshishi, oziq-ovqat mahsulotlari narxi qimmatlashishi kabi muammolar vujudga kelishi ehtimoli yuqori.

Modomiki, suv tanqisligi va uning oqibatlarlari shu qadar keskin ekan, muammo bilan fursatni boy bermasdan jiddiy shug'ullanish, oqibatlarini yumshatish choralarini ko'rish talab etiladi. Bu borada eng to'g'ri yo'l suvdan samarali foydalanish, tejamkorlikni yanada oshirishdir.

Ma'lumotlarga ko'ra, yurtimizda bugungi kunda 3 million 200 ming gektar yerni sug'orishga 46 milliard kub metr suv sarflanayotgan bo'lsa, shundan 60 foizigina ekinlarga yetib boryapti. Negaki, birinchidan, yurtimiz irrigatsiya tizimidagi 180 ming kilometr sug'orish tarmog'ining chorak qismi beton qoplamali, bu tizim bilan yetib borgan suv orqali esa 98 foiz ekin an'anaviy tarash uslubida sug'oriladi. Ya'ni ham suv yetkazib berish jarayonida, ham dalaning o'zida suv isrof bo'ladi. Qolaversa, nasos stansiyalarining aksariyati eski, shu bois, elektr energiyasi iste'moli juda yuqori.

Suv xo'jaligi vazirining ta'kidlashicha, ko'p hollarda ekinni sug'orish uchun yo'naltirilgan suvning 40 foizi sug'orish tarmoqlarida, 20 foizi esa dalaning o'zida yo'qotilyapti. Demak, bu kabi isrofgarchilikni keskin kamaytirish orqali vegetatsiya davrida kuzatilyotgan qariyb 8-10 milliard kub metr suv tanqisligini qoplash mumkin.

E'tibori jihat, mamlakatimizda bu borada tizimli ishlar yo'lga qo'yilgan. Katta-katta ekin maydonlarida qo'llanilayotgan suv tejovchi texnologiyalar nafaqat suv sarfini qisqartirish, balki yoqilg'i, mineral o'g'itlar va ishchi kuchini tejash orqali xarajatlarni qisqartirish, asosiysi, hosildorlikni oshirishga xizmat qilmoqda.

Davlatimiz rahbari raisligida shu yil 18-aprel kuni suv xo'jaligida va farmatsevtika sanoatida amalga oshirilayotgan loyihalar hamda kelgusi vazifalar muhokamasi yuzasidan o'tkazilgan yig'ilishda



qayd etilganidek, hozirgi kunda 450 ming gektar yoki sug'oriladigan maydonning 15 foizi lazerli texnologiyada tekislangan. Agar bunday yerlar 2 barobar ko'paytirilsa, yana 900 million kub metr suv tejaladi, qo'shimcha 200 ming gektarda suv ta'minoti yaxshilanadi.

So'nggi yillarda 400 ming gektarda tomchilab va yog'irlatib sug'orish texnologiyalari joriy qilindi. Bu yil yana 80 ming gektar maydonda ishlar boshlangan. Bu ham katta hajmdagi suv tejashiga xizmat qilishi, shubhasiz.

Umuman olganda, 2017-2022-yillarda 1,4 million gektar ekin maydonida suv tejovchi texnologiyalar joriy etilishi hisobiga 3 milliard kub metr suv iqtisod qilinishiga erishilgan. Shuningdek, qo'shimcha 400 ming gektar maydonda suv ta'minoti yaxshilangan.

Suv tejovchi texnologiyalarni qo'llash samaradorlikka erishishda naqadar ahamiyatli bo'lsa, bunday texnologiyalarni ishlab chiqarishni ham mahalliyashtirish shu qadar muhimdir. Zero, bizda bu tajriba-ni shu paytgacha keng ommalashib ketmaganiga eng asosiy sabablardan biri bu turdagi import texnologiyalarning qimmatligida edi.

Shuning uchun suv tejovchi texnologiyalarni mahalliyashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, so'nggi yillarda ushbu yo'nalishni rivojlantirish, tadbirkorlik subyektlarini rag'batlantirish bo'yicha ko'rilgan amaliy choralar natijasida mahalliyashtirish darajasi 80 foizga yetib, mamlakatda ushbu yo'nalishda faoliyat yurituvchi korxonalar soni 50 tadan oshdi. Bularning barchasi O'zbekistonning bunday texnologiyalarni joriy qilish bo'yicha mintaqamizda birinchi, MDH davlatlari orasida ikkinchi, Osiyoda to'rtinchi va dunyoda 13-o'rinni egallashi uchun zamin yaratdi.

Ushbu yo'nalishda bugungacha qilingan ishlar, shunga yarasha erishilgan natijalar yaxshi, albatta. Lekin yuqorida qayd etganimizdek, suv tanqisligi ko'lami yildan-yilga ortib boraveradi. Bu esa, o'z navbatida, suv xo'jaligi tizimida suv tejovchi texnologiyalardan foydalanish, lazerli tekislash, kanal va ariqlarni betonlash, melioratsiya obyektlarini qurish va rekonstruksiya qilish borasida ishlar ko'laminin yanada kengaytirishni taqozo qiladi.

Bu borada Prezidentimizning “O'zbekiston — 2030” strategiyasi to'g'risida’gi farmoni bilan suv tanqisligi muammosining oldini olish, oqibatlarini yumshatishga qaratilgan ustuvor vazifalar belgilab berilgani juda muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

“O'zbekiston — 2030” strategiyasiga muvofiq, suv ishlatish samaradorligi 25 foiz oshirilib, qishloq xo'jaligi ekinlarini sug'orishda suv tejaydigan texnologiyalar bilan qamrab olingan yerning umumiy maydoni 2 million gektargacha, jumladan, tomchilab sug'orish texnologiyasi 600 ming gektargacha, ushbu maqsadlarga erishish uchun esa suv tejovchi texnologiyalarni ishlab chiqaruvchi mahalliy korxonalarning yillik quvvati 300 ming gektarga yetkaziladi.

Tuproq qoplamali kanallarni beton qoplamaga hamda ichki sug'orish tarmoqlarini yopiq quvurli sug'orish tizimlariga o'tkazish bo'yicha yetti yillik dastur doirasida irrigatsiya tizimi va sug'orish tarmoqlarining foydali ish ko'effitsiyenti ko'rsatkichi 0,73 gacha oshiriladi.

Tuproq o'zanli magistral va xo'jaliklararo 18,7 ming kilometr kanalinang beton qoplamali ulushi 13,1 ming kilometrga yoki 46 foizga yetkaziladi. Kamida 100 ta yirik suv xo'jaligi obyektida avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimi joriy etiladi.

Umuman olganda, “O'zbekiston — 2030” strategiyasi suvdan foydalanish samaradorligini oshirish, tanqislikning salbiy oqibatlarini yumshatish, pirovardida iqtisodiyotimiz barqarorligi, yurtdoshlarimiz farovonligini yuksaltirishga doir ustuvor vazifalar belgilab berilgani bilan yanada ahamiyatlidir.

TOSHKENT DEKLARATSIIYASI yoxud kelajakka investitsiya

O'tgan yilning noyabr oyida Toshkent shahrida UNESCOning Kichik yoshdagi bolalarni tarbiyalash va ta'lim berish bo'yicha II jahon konferensiyasi o'tkazilgan edi.

Konferensiya yakunlariga ko'ra, 150 ga yaqin davlat vakillari ishtirokida keyingi 10 yilda maktabgacha ta'lim sohasidagi ustuvor yo'nalishlarni aniqlab beruvchi Toshkent deklaratsiyasi qabul qilindi. Unda yangi g'oya va tashabbuslar, aniq taklif va tavsiyalar asosida 2030-yilgacha bo'lgan davrda dunyo bo'ylab erta yoshdagi bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berishga qaratilgan bir nechta asosiy yo'nalish belgilandi. Jumladan, bu yo'nalishlar barcha bolalar uchun teng va inklyuziv ta'lim xizmatlarini ta'minlash (qamrov va imkoniyat), pedagog kadrlarni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash (o'qituvchi imijini yaxshilash), innovatsiyalar, raqamlashtirish, moliyalashtirish va boshqaruvni ko'zda tutadi.

Toshkent deklaratsiyasining asosiy yo'nalishlari imzolangan paytdan boshlab xalqaro tashkilotlar va ishtirokchi davlatlarning tegishli vazirliklari uchun qo'llanmaga aylandi.

Maktabgacha ta'limning xalqaro kun tartibini belgilashga qaratilgan hujjat BMTning oltita rasmiy tilga tarjima qilindi va UNESCOga a'zo davlatlarga tarqatildi.

UNESCO Ijroiya kengashining 216-sessiyasi O'zbekiston tashabbusi bilan "Toshkent deklaratsiyasi bajarilishi bo'yicha bundan keyingi sa'y-harakatlar hamda yosh bolalar tarbiyasi va ta'limini o'zgartirish choralari"ni ko'rish bo'yicha majburiyatlar rezolyutsiyasini bir ovozdan ma'qulladi.

Unda forum yakunlari bo'yicha Toshkent deklaratsiyasi hamda kichik yoshdagi bolalar tarbiyasi va ta'limini o'zgartirish manfaatlarini ko'zlab chora-tadbirlar ko'rish majburiyati qabul qilangani alohida olqishlangan. Hujjat, shuningdek, a'zo davlatlarni Toshkent deklaratsiyasining majburiyatlarini bajarishga, jumladan, UNESCOning maktabgacha ta'lim sohasidagi sa'y-harakatlarini ixtiyoriy badallar orqali faol qo'llab-quvvatlashga, mutaxassislar bilan ta'minlash va hamkorlikni mustahkamlashga da'vat etadi.

Yuqorida keltirilgan asosiy yo'nalishlar bo'yicha, xususan, tizimni yanada takomillashtirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim va tarbiya sifatini oshirish, ilg'or xorijiy tajribani joriy etish chora-tadbirlari ishlab chiqildi va bu borada bir qancha ishlar bajarilmoqda.



Jumladan, borish qiyin bo'lgan hududlarda "Aqlvoy" mobil bolalar bog'chalari va o'yin guruhlari kabi muadib ta'lim shakllari sonini kengaytirish bo'yicha alohida taklif ishlab chiqildi hamda Moliya va iqtisodiyot vazirligiga kelishish uchun kiritildi.

Shuningdek, joriy yilning o'tgan 8 oyi davomida 1372 ta maktabgacha ta'lim tashkiloti ochilib, ular soni 30 792 taga yetkazilgan barcha uchun teng inklyuziv va sifatli ta'lim xizmatlarini yo'lga qo'yish bo'yicha amalga oshirilgan ishlarga yana bir misol bo'la oladi. Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining 789 tasi xususiy, 1328 tasi davlat-xususiy sheriklik asosidagi va 21 941 tasi oliiviydri.

Respublika bo'yicha 3-7 yoshli 2 930 844 bolaning 2 111 487 nafari yoki 72 foizi maktabgacha ta'lim bilan qamrab olindi, — deydi Maktabgacha ta'lim agentligi direktori o'rinbosari Oyatullo Rahmatilayev. — Shuningdek, yangi o'quv yilida 428 ta boshlang'ich ta'limga majburiy bir yillik tayyorlov guruhi tashkil etilib, ular soni 7560 taga yetkazildi va 6 yoshli bolalarning 90 foizi (647 655 nafari) qamrab olindi.

Chekk hududlarda maktabgacha ta'lim xizmatlarini tashkil etish maqsadida Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlariga 7 ta "Isuzu" avtobusi qayta jihozlangan holda yetkazib berildi. Natijada ushbu hududlarda 42 ta mobil guruh tashkil etilib, 672 bola maktabgacha ta'lim bilan qamrab olindi.

2023-yilgi investitsiya dasturi doirasida 182 ta davlat maktabgacha ta'lim obyektida jami 992,2 milliard so'mlik shartnomalar imzolaniib, 655,6 milliard so'mlik (66 foiz) qurilish ishlari bajarildi, 585,4 milliard so'mlik (59 foiz) moliyalashtirildi.

Investitsiya dasturi asosida yangi quriladigan va rekonstruksiya qilinadigan 112 ta, qo'shimcha jihozlangan 213 ta davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti, 370 ta boshlang'ich ta'limga majburiy bir yillik tayyorlov guruhini mebel va boshqa turdagi jihozlar bilan ta'minlash uchun tender o'tkazilib, 20 ta g'olib

korxona bilan jami 118,2 milliard so'mlik shartnomalar imzolandi.

— Davlat-xususiy sheriklik asosida tashkil etilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlariga davlat budjetidan 1,3 trillion so'm subsidiya hisoblanib, avtomatik tarzda moliyalashtirildi, — deydi Oyatullo Rahmatilayev. — Jahon banki ko'magidagi "Bolalarni erta yoshdan rivojlantirishni takomillashtirish" loyihasi doirasida 2,8 million AQSH dollari (rejaga nisbatan 109 foiz) hamda Saudiya taraqqiyyot jamg'armasi bilan hamkorlikdagi "Maktabgacha ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni qo'llab-quvvatlash" loyihasi doirasida 1,1 million AQSH dollari o'zlashtirilishiga erishildi.

Maktabgacha ta'lim tizimida pedagoglarning o'rni beqiyos. O'qituvchi maktabgacha ta'limda asosiy shaxs bo'lib, e'tibor o'qituvchilar malakasini oshirishga qaratilmoqda. Bu borada UNICEF, KOICA, JICA, ITB, OTB kabi xalqaro tashkilotlar bilan yaqin hamkorlik qilinmoqda.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 152 897 nafar (oliy ma'lumotliilar ulushi 34,1 foiz) rahbar va pedagog faoliyat yuritmoqda.

Xalqaro tajribalarni o'rganish va maktabgacha ta'lim tizimiga tatbiq etish maqsadida tizimdagi 4 pedagog-mutaxassis Xitoydagi seminarlarda, 15 nafari Koreya Respublikasining SOON CHUN HYANG universitetida tashkil etilgan o'quv kursida malaka oshirdi.

Rahbar va pedagog kadrlarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish hamda o'quv dasturlarini takomillashtirish orqali ta'lim sifatini ta'minlash maqsadida xorijiy mutaxassislarni jalb etgan holda maktabgacha ta'lim tashkilotlarining 14 mingdan ziyod xodimini qisqa muddatli (40 soatga mo'ljallangan) malaka oshirish kurslarida o'qitish yo'lga qo'yildi.

AQSH Qishloq xo'jaligi agentligining O'zbekistondagi "Mercy corps" filiali bilan hamkorlikda Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti huzurida hamshiralarning kasbiy malakasini oshirish, shoshilinch holatlarda bolalarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish ko'nikmasini shakllan-

tirish uchun maxsus o'quv uskunalar, o'quv trenajori bilan jihozlangan simulyatsion markaz faoliyat boshladi. Ushbu markazda 4 ta o'quv kursi tashkil etilib, maktabgacha ta'lim tashkilotlarining 160 hamshirasi malaka oshirdi. Shu bilan birga, ota-onalar uchun 6 yoshgacha bo'lgan bolalar salomatligi va rivojlantirishning barcha jihatlari bo'yicha mutaxassislar maslahati bilan ta'minlab beruvchi "Bebbo" mobil ilovasi ishga tushirildi.

Kichik yoshdagi bolalar ta'limi sifati va natijalarini baholash tizimini joriy etish bo'yicha Jahon banki ekspertlari tomonidan xalqaro MELQO baholash vositalari tanlab olingan 10 ta davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tajriba-sinovdan o'tkazildi.

Tizimda faoliyat yuritayotgan pedagog xodimlar uchun uzluksiz metodik xizmatni tashkil etish maqsadida "Learning passport" (Bolalik akademiyasi — bolakadem.uz) ta'lim elektron platformasi joriy etildi.

O'quv-tarbiya jarayonida zamonaviy ta'lim dasturlari, ilg'or axborot va pedagogika texnologiyalarini joriy etish orqali bolalarni intellektual, ma'naviy-axloqiy, jismoniy rivojlantirish, maktabga tayyorlash darajasini oshirish katta ahamiyatga ega. Respublikadagi 6,6 mingta (99 foiz) davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti yuqori tezlikdagi internet tarmog'iga ulandi. Shuningdek, 6,7 mingta davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti yangi, zamonaviy kompyuter qurilmalari bilan ta'minlandi.

Maktabgacha ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni qo'llab-quvvatlash loyihasi doirasida Islom taraqqiyot banki bilan hukumat o'rtasida 30 million AQSH dollariga teng qarz kelishuvi imzolandi. Ushbu loyihaga qo'shimcha mablag' jalb qilish maqsadida yana OPEC xalqaro taraqqiyot jamg'armasi bilan 20 million AQSH dollarilik kelishuvga erishildi.

Risolat MADIYEVA,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



YANGI HAYOT UCHUN, YANGI O‘ZBEKISTON UCHUN!

SAMO KABI YUKSAK KASBGA INTILIB

Davlatimiz rahbari 2018-yilning yanvar oyida Qashqadaryoga tashrifi davomida Xonobod harbiy aerodromida bo'lib, bu yerdagi obyektning imkoniyatlaridan samarali foydalanish maqsadida Jizzax Oliy harbiy aviatsiya bilim yurtini Qarshi shahrida qayta tashkil etish to'g'risida taklif bergandi.

Shundan so'ng ko'p o'tmay, Qarshi serjantlar tayyorlash maktabi negizida oliy harbiy aviatsiya bilim yurtining qurilish ishlari boshlab yuborildi. Bu ishlarga 73 milliard so'mdan ortiq mablag' ajratilib, keng ko'lamli bunyodkorlik ishlari olib borildi. Natijada bilim yurti zamonaviy ko'rinishga keltirilib, so'nggi rusumdagi trenajyorlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, o'quv-uslubiy qo'llanmalar va boshqa zarur jihozlar bilan ta'minlandi. Sport majmualari qayta rekonstruksiya qilinib, yetarli imkoniyatlar yaratildi. 2019-yilga kelib, bilim yurti to'liq Qarshi shahriga ko'chirildi.

Yangilanishlar o'z natijasini ko'rsatmoqda

Bugungi kunda bilim yurtida kursantlarni tayyorlash uchun o'quv-taktik mashg'ulotlar, nazariy va amaliy bilim olishlari uchun keng imkoniyatlar eishgi ochilgan. Jumladan, qulay laboratoriyalar, interaktiv o'quv xonalari, real parvozga yaqinlashtirilgan aviatsiya trenajyorlari hamda simulyatsiyalar, ilmiy ishlarnalar ustida ishlash uchun yaratilgan sharoitlar ta'lim sifatini oshirishda muhim omil bo'lmoqda.

— Ko'p yildan buyon shu sohada faoliyat olib boraman, — deydi bilim yurti rahbarining o'quv ishlari bo'yicha o'rinbosari Hikmatilla Do'stmamatov. — Oliy Bosh Qo'mondonimiz tashabbusi bilan uchuvchilarni tayyorlash bilim maskani aynan Qarshi shahriga ko'chirib kelinishi yo'nalishimizda o'ziga xos islohotlar sari tashlangan katta qadam bo'ldi. Buning samarasi qisqa fursatlarda amalda namoyon bo'la boshladi. Birgina misol aytadigan bo'lsam, ta'lim muassasamiz ilmiy salohiyati so'nggi to'rt yilda 9,6 foizdan 43,5 foizga ko'tarildi. Bu ko'rsatkich 2024-yilda 60 foizga chiqarilishi maqsad qilingan.

Joriy yil fevral oyida Prezidentimiz Qashqadaryoga tashrifi chog'ida bilim yurtimiz faoliyati bilan tanishib, shu jarayonda bir qator ishlarni amalga oshirish lozimligi to'g'risida topshiriqlar berdi. Jumladan, muassasamizga institut maqomini berish, shuningdek, shu yerning o'zida magistratura, doktorantura yo'nalishlarini ochish hamda ilmiy kengash faoliyatini yo'lga qo'yish belgilandi. Ayni paytda oliy harbiy aviatsiya bilim yurti qoshida akademik litsey ochish borasida ham ko'rsatma olgandik. Bugungi kunda kerakli loyihalar tayyorlanib, harakatlar boshlab yuborilgan. 2024-yil yangi o'quv yilidan akademik litsey ish boshlaydi.

Shu yil may oyidan boshlab bilim yurti tarixida ilk bor ilmiy daraja beruvchi Kengash o'z faoliyatini boshladi. Mazkur Kengash tarkibiga Qurolli Kuchlar Akademiyasi, Mudofaa vazirligi axborot texnologiyalari va aloqa harbiy instituti, Toshkent axborot texnologiyalari universitetining ilmiy darajaga ega yetakchi olimlari qamrab olingan bo'lib, shu yilning iyul oyida dastlabki dissertatsiya himoyasi ham bo'lib o'tdi. Yil yakuniga qadar yana uch nafar ilmiy izlanuvchi bu jarayonda ishtirok etadi.

Hozirda bilim dargohimizda 2 nafar fan doktori, 3 nafar fan nomzodi va 11 nafar falsafa fanlari doktori (PhD) faoliyat olib boryapti. O'tgan to'rt yil davomida 34 nafar o'qituvchimiz dotsent ilmiy unvoniga ega bo'ldi.

Bilim yurtining ilmiy yo'nalishdagi ustuvor vazifalaridan biri — bu kursantlar, tinglovchilar va professor-o'qituvchilarning izlanuvchanlik qobiliyatini rivojlantirish, ularning o'z ustida doimiy izlanishlar olib borishini ta'minlash, ratsionalizatorlik va patent-litsenziya ishlarni rivojlantirishdan iborat. Shu maqsadda qilinayotgan ishlar natijasida har yili 50 dan ortiq yangi ishlanma, loyihalar, turli ta'minot dasturlari, infografika materiallari, raqamli stansiyalar, jihozlar va uskunalar yaratilmoqda. Shuningdek, kursantlar o'rtasida "Aviamodelist", "Raketamodelist", "Dvigatelmodelist", "Yosh elektromexanik", "Yosh dasturchi" kabi to'garaklar tashkil etilgan bo'lib, ular faoliyatining asosiy qismi ixtirochilik va ratsionalizatorlikka qaratilgan. E'tiborli tomoni, to'garaklarga kursantlar bilan birga, yaqin atrofda mahallalar yoshlari ham jalb etilgan.

Mashg'ulotlarda ishtirok etayotgan yoshlar vertolyot va samolyot maketlari bilan birga, turli radioboshqaruvli aviamodellar yasashini ham o'rganmoqda.

Oldin nazariya ko'p, amaliyot kam edi

Mutaxassislarning ta'kidlashicha, avvallari amaliyot o'tash uchun imkoniyat yetarli darajada



bo'lmagani sababli mashg'ulotlar ko'proq nazariy o'tilgan. Bugungi kunda esa o'quv-yig'in jarayonlarining asosiy qismi harbiy aerodromda o'tkazib kelinadi. Bundan tashqari, zamonaviy trenajyor vertolyotlari kursantlarda uchuvchilik ko'nikma hosil qilish uchun muhim vosita bo'lmoqda.

— Havo kemasi boshqarishni o'rganish uchun, avvalo, kishining o'zida qiziqish bo'lishi lozim, — deydi bilim yurtining trenajyor-tayyor-garlik markazi katta o'qituvchi-yo'riqchisi Rashid Qo'ldoshev. — Kimningdir xohishi yoki taklifi bilan uchuvchilik mahorati egallash mushkul. Buni tajribamizda ko'p ko'rdik. Albatta, o'ziga xos sharafli va murakkab kasbni egallash uchun kursantdan kuchli bilim, tajriba va ruhiy tayyorgarlik talab etiladi. Mard va jasur yigitlarimizning Vatan-ga xizmat qilishdek oliy maqsad yo'lida intilishlarini ko'rib, mamnun bo'lamiz, albatta.

Bizning vazifamiz bo'lajak uchuvchilarning dastlabki ko'nikmasini shakllantirishdan iborat. O'ziga xos mas'uliyatli kasb ekani bois, o'rganish davomida har bir kursantdan diqqatli bo'lish talab etiladi. Birgina xato ham qichiril-maydi. Kursantlarimiz berilgan topshiriqlarni



xatosiz uddalashga, vazifalarni o'z vaqtida bajarishga harakat qilmoqda.

Boshlang'ich bosqichlardan to'liq o'tgach, yosh uchuvchilar Xonobod harbiy aerodromida amaliyot o'tab, malaka oshiradi. Ochig'i, avvallari bu jarayonni o'tashga yetarli shart-sharoit yo'q edi. Bugun esa barchasi belgilangan rejaga asosan olib borilmoqda. Yosh uchuvchilarning ko'p vaqti vertolyotlarni amalda boshqarishga sarflanayotgan ularning malakali kasb egasi bo'lib yetishishiga zamin yaratmoqda.

"Men albatta uchuvchi bo'laman"

Shahzod Qurbonov Koson tumanidagi Pu-dina qishlog'ida tug'ilgan. Bolaigidan texnikaga qiziqishgan Xonobod harbiy aerodromida a'lo baholar olardi. Vaqt topdi deguncha, hovlisidagi eski mototsiklni bo'laklarga ajratib, yana qayta terib chiqishdan erinmasdi. Uning harakatlanishi, yoqilg'i sarfi, qanday tezlikda yura olishini o'rganib bordi. Ba'zida osmonda vertolyotlar uchib yurganini ko'rib qolsa, shunday katta mashina osmonda o'z vaznini qanday ko'tarib yurishini bilishga qiziqardi. Ota-onasi esa unga bu kasbni egallash uchun yaxshi o'qish kerakligini ta'kidlardi.

— Bolaligimda uchuvchi bo'lishga juda qiziqardim, — deydi 3-bosqich kursanti Shahzod Qurbonov. — Maktabni tugatgan yilim hujjat topshirib, test sinovlaridan o'tolmay qoldim. Keyingi yili o'zimni qayta sinab ko'rishga ahd qildim, afsuski, yana o'xshamadim. Lekin shashtimdan qaytmadim. Yanada jiddiy tayyorgarlik ko'rdim va uchinchi yili kursantlikka qabul qilindim. Bundan juda xursandman.

SHVETSIYADA 858 TA QO‘LYOZMA ANIQLANDI

ULARNING 25 TASI ALISHER NAVOIY QO‘LYOZMALARIDIR



“Qo‘lyozmalarni har safar o‘rganganimda sirayam qaytib bergim kelmaydi, o‘zimzniki axir”, deydi suhbatimiz avvalida O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti professori Gulnoza XALLIYEVA. Ma‘naviy merosimizga bo‘lgan shu birgina e‘tirof, mehr-muhabbat taftidan qalbmiz yorishib ketdi. Suhbatdoshimizning “Yevropa fondlarida saqlanayotgan, O‘zbekistonda mavjud bo‘lmagan turkiy qo‘lyozmalarning ma‘lumotlar bazasini va “Yevroturcologica.uz” elektron platformasini yaratish” nomli ajoyib innovatsion loyiha ishida qilgan izlanishlari, mashaqqatlari va ilmiy kuzatuvlari ko‘z o‘ngimizda namoyon bo‘ldi.

Ushbu loyiha tashabbusi qanday maqsadlar va ma‘naviy ehtiyojlar tufayli o‘rtaga tashlandi? Shu kungacha qo‘lyozmalarimizning elektron platformasida qanday ma‘lumot va yangiliklar mujassam bo‘ldi? Ushbu ma‘lumotlarning bosma qo‘g‘ozlardagi nashri ham tayyorlanayotimi? Ayni savollarimiz atrofidagi mulohazalar sizni ham e‘tiborsiz qoldirmaydi degan umiddamiz.

— Innovatsion loyihadagi reja asosida 2023-yil iyunda O‘zbekistondan Shvetsiyaga borgansiz. Ayni sanagacha Yevropaning Fransiya, Germaniya, Finlandiya, Avstriya, Shveysariya, Italiya, Daniya, Lyuksemburg, Chexiya kabi qator davlatlari fondlarida izlanishlar olib borganingiz haqida o‘qiganmiz. Ushbu ilmiy safarlar davomida loyiha a‘zolari tomonidan qanday e‘tiborga molik qo‘lyozmalar topilgan va nashr qilingan?

— Avvalo, ushbu xizmat safari oldidagi hayajonlarimni aytmaysizmi?! Prezidentimizning 2017-yil 24-maydagi “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2017-yil 20-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbekistonga oid xorijdagi madaniy boyliklarni tadqiq etish markazi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarorlarida mam-lakatimiz fondini boyitish maqsadida yurtimiz tarixiy-madaniy merosiga oid, xorij fondlarida saqlanayotgan noyob kitoblarni olib kelish, qo‘lyozmalarni sotib olish va ko‘paytirish bilan bog‘liq vazifalarni amalga oshirish belgilangan. Bundan tashqari, Turkiy tili davlatlar hamkorlik kengashi (hozirgi Turkiy davlatlar tashkiloti)ning qator vazifalari, sharqshunoslik yo‘nalishidagi tadqiqotlar ham aynan chet el fondlarida turgan madaniy yodgorliklarimizni o‘rganish yo‘li bilan xalq mulkiga aylantirishga, hukumatimiz qarorlari ijrosiga qaratilgan. Mazkur hujjatlarning e‘lon qilinishi biz, tadqiqotchilarning necha yillardan buyon orzu qilib kelayotgan izlanishlar va dadil qadamlarimizga yo‘l ochib berdi, desak adashmagan bo‘lamiz.

Yangi loyihamizning asosiy maqsadi ham Yevropaning yirik qo‘lyozma fondlarida saqlanayotgan, O‘zbekistonda muqobil bo‘lmagan qo‘lyozmalarimizni aniqlash, sohalar bo‘yicha tasniflash, tavsiflash va tadqiq qilishdan iborat. O‘tgan davr mobaynida Yevropaning qator davlatlari fondlaridan loyiha a‘zolari tomonidan 93 ta noyob qo‘lyozma topildi, ayrimlari tabdil va nashr qilindi. Fransiyaadan olib kelingan “Nasixatnomai Shohiy” (Xusayn Xorazmiy,

nomidagi Milliy kutubxonada to‘liq tanishish mumkin.

Kelgusida Yevropa fondlaridagi qo‘lyozmalar foto nusxalarini, mikro-filmalarini olish hisobidan mamlakatimiz qo‘lyozma manbalar fondi boyitib boriladi. Shuningdek, qo‘lyozmalar reyestrini va ilmiy tavsifini yaratish orqali millatimiz tarixining yangi sahifalarini ochish, ma‘naviy qadriyatlarimizning xalqaro miqyosdagi hududini belgilash, yozma madaniyatimiz poydevori bo‘lgan birlamchi qadimiy manbalarni ilmiy istifodaga kiritish va xalqimizning ma‘rifat xazinasini yangidan-yangi tadqiq va targ‘ib obyektlari bilan boyitish loyihamizning ilmiy ahamiyatini belgilaydi. Izlanishlarimiz davomida qo‘lga kiritiladigan ilmiy yutuqlar va natijalar kelgusida ushbu yo‘nalishda amalga oshiriladigan yuzlab ilmiy tadqiqot ishlari uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Dastavval, ilmiy izlanishlarimni Uppsala universiteti kutubxonasida turgan turkiy qo‘lyozmalarimizni o‘rganishdan boshladim. Kuzatishlarimiz asosida bu joydagi turkiy qo‘lyozmalar bo‘yicha 2 ta katalog yaratilgan aniqlandi. Birinchisi 1849-yilda shved sharqshunos olimi Karl logann Tornberg (Carl Johan Tornberg 1807-1877) tomonidan lotin tilida yaratilgan (Codices Arabici, Persici et Turcici Bibliothecae Regiae Universitatis Upsaliensis). Ushbu katalogda Uppsala universiteti kutubxonasiga 1845-yilgacha yig‘ilgan arab, fors, turkiy qo‘lyozmalarining qisqacha tavsifi berilgan. Tavsifda qo‘lyozmalar tarix, falsafa, adabiyot, matematika kabi fanlar bo‘yicha ajratilgan. Qo‘lyozmalar har bir soha doirasida arab (a), fors (f), turkiy (s) tarzida bitta bo‘limda ko‘rsatilgan. Masalan, adabiyotga oid har uchala tildagi



qo‘lyozmalar tavsifi bitta joyda berilgan. Kitobga juda sarmazmun so‘zboshi yozilgan, jumladan, qo‘lyozmalarining Shvetsiyaga, Uppsala kutubxonasiga keltirilishi bilan bog‘liq tarix batafsil yoritilgan. Ushbu katalogni o‘rganish asosida turli fanlarga oid 206 ta turkiy qo‘lyozma mavjudligini aniqladik.

Ikkinchi katalog ikki jildidan iborat bo‘lib, Uppsala universiteti professori Karl Vilgelm Zettersten tomonidan yaratilgan. Ushbu katalogda ham arab, fors, turkiy qo‘lyozmalar tavsifi berilgan (Die arabischen, persischen und turkischen handschriften der universitätsbibliothek zu Uppsala). Olim Uppsala universitetida sharqshunoslik yo‘nalishi taraqqiyotiga katta hissa qo‘shgan, arab, fors, turkiy tillardan bir nechasini mukammal bilgan. Kataloglarning har ikkalasida so‘zboshi berilgan. Ulardan ma‘lum bo‘lishicha, K.Zettersten aynan K.Tornberg katalogiga kirmagan, 1849-yildan keyin kutubxonaga keltirilgan qo‘lyozmalarni tavsif qilgan. Bundan tashqari, ushbu katalog arab, fors, turkiy qo‘lyozmalarining alohida-alohida boblarda berilgani bilan K.Tornberg katalogidan farq qiladi. Mazkur kataloglarda jami 142 ta turkiy qo‘lyozmaga tavsif berilgan. Yuqorida qayd etilgan kataloglardan tashqari 1935-yildan keyin kutubxonaga keltirilgan qo‘lyozmalar haqida ham oddiy

printerda chiqarilgan material mavjud, unda 21 ta turkiy qo‘lyozmaga tavsif berilgan.

— Shvetsiyaning Lund universiteti kutubxonasidagi qo‘lyozmalarining aksariyati shved olimi va diplomati Gunnar Jarring nomi bilan bog‘liq ekani rostmi? Bu qo‘lyozmalarining o‘ziga xosligi nimalarda ko‘rinadi?



QR-kodni skaner qilish orqali videoga o‘ting!

— Darhaqiqat, bu kutubxonada saqlanayotgan turkiy qo‘lyozmalar hajmi 500 dan ortiq bo‘lib, mazkur fond shved diplomati va olimi Gunnar Jarring nomi bilan ataladi (The Jarring Collection). Gunnar Jarring ko‘p yillar davomida Sharqiy Turkistonda diplomatik qilgan, o‘z faoliyati davomida ko‘p qo‘lyozmalarni yiqqan, mahalliy xalqdan sotib olgan. 1982-yilda barcha bo‘ylarga ajratilgan. Qo‘lyozmalar Lund universiteti kutubxonasiga topshirgan. Ingliz tilidagi ushbu qo‘lyozmalar katalogini ham yaratgan, ammo nashr qilinmagan. Hozir

qo‘lyozmalarining nihoyatda boy kolleksiyasi bo‘lib, dunyoda uchinchi o‘rinda turishini aytdi. Qo‘lyozmalar islom olamining Markaziy Osiyoning chekkasidan, hozirgi Xitoyning Shinjon viloyatidan, qadimgi Ipak yo‘li bo‘yida joylashgan Qoshg‘ar va Yorkent kabi shaharlardan keltirilganini, mazkur fondni raqamlashtirish uchun katta mablag‘ ajratilganini ham ta’kidladi. Kelajakda bu

xayrli ish amalga oshirilishini ma‘lum qildi. Olimaning ta’kidlashicha, Gunnar Jarring tashabbusi tufayli ko‘plab diplomatlar Jarring to‘plamiga o‘zlari keltirgan, mahalliy bozorda ko‘chirilgan yoki sotib olingan qo‘lyozmalar bilan hissa qo‘shgan. Ko‘pgina qo‘lyozmalar Gustaf Albert (109 ta), Devid Gustafsson (75 ta), Sigfrid Moyn (59 ta), Gustaf va Hanna Raguyetti (48 ta), Oskar Hermansson (42 ta), Gunnar Hermansson (31 ta) kabi diplomat hamda olimlar tomonidan kutubxonaga topshirilgan. Demak, hozirgacha kuzatishlarimiz asosida Shvetsiyada 858 ta turkiy qo‘lyozma borligi aniqlandi. Agar takror nusxalar borligini hisobga olsak, 500 tadan ortiq qo‘lyozma bor. Ular turli davrga va sohalarga oid. Adabiyotshunos bo‘lganim uchun, albatta, birinchi navbatda adabiy asarlarga diqqatimni qaratdim. Ular orasida Alisher Navoiy, Bobur Mirzo, Fuzuliy, So‘fi O‘loyor, Mashrab kabi biz bilgan mashhur shoirlardan tashqari hali xalqimizga noma‘lum bo‘lgan shoirlar, tarjimonlarning ham qo‘lyozmalari mavjud. Alisher Navoiy qo‘lyozmalarining o‘zi 25 ta.

Biz tekshirgan kataloglar so‘zboshida keltirilgan ma‘lumotga ko‘ra, ushbu qo‘lyozmalar, asosan, shved diplomatlari faoliyati davomida yig‘ilgan, sotib olingan va keyinchalik Lund va Uppsala universitetlari kutubxonalarga tuhfa qilingan. Qo‘lyozmalar orasida O‘zbekistonda mavjud bo‘lmagan turkiy qo‘lyozmalar ham bor. Biz aynan shu masalani jiddiy tekshiryapmiz, natijalarni tadqiqotlarimizdan keyin e‘lon qilamiz.

— Shvetsiya va turkiy davlatlar o‘rtasida avvaldan diplomatik, ijtimoiy-madaniy aloqalar bo‘lgan. Ilmiy adabiyotlarda XVI asrdan boshlab shved olimlari turli sohalarda ilmiy-madaniy aloqalar o‘rnatgani yoritilgan. Ya‘ni, adabiyotda elchixonamiz ochilgani bu aloqalarni yanada kengaytirdi. Shunday emasmi?..

— Albatta. Biz Stokgolmda, O‘zbekistonning Shvetsiyadagi muvaqqat ishlar vakili Nodir G‘aniyev va elchixon uchunchi kotibi Orifjon Komiljon o‘g‘li bilan rasman uchrashdik, kelajakdagi rejalarni-miz, Shvetsiyadagi turkiy qo‘lyozmalarimiz taqdiri, ularni o‘rganish yo‘li bilan vatanimizga qaytarish kabi masalalar yuzasidan suhbatlashdik.

Galdagi vazifa Shvetsiya kutubxonalari-da saqlanayotgan 800 dan ortiq noyob dardonomizni olimlar guruhli bilan kelib, avvalo, to‘liq reyestrini tuzish, tavsifini yaratish, hammasini yaroqli holga keltirib tamirlash, iloji bo‘lsa, yurtimizga qaytarishdan iborat.

— Polshadagi ilmiy izlanishlar haqida ham to‘xtalib o‘tsangiz. Ma‘lumotlarga

ko‘ra, mazkur davlatda saqlanayotgan Sharq qo‘lyozmalari bo‘yicha 1958-1969-yillar mobaynida 5 jildli katalog-tavsif yaratilgan ekan...

— Polsha davlatining Varshava shahriga yetib kelganimizda vatandoshimiz, faylasuf olim, O‘zbekiston Respublikasi-ning Polsha Respublikasidagi Favqulod-da va muxtor elchisi Bahrom Babayev topshirig‘i va tashabbusi asosida meni juda iliq kutib olishdi, har tomonlama qo‘llab-quvvatlashdi. Musofir yurtda ikki oy izlanish olib borish davomida aynan yurtimiz odamlari mehribonligi va g‘amxo‘rligi qanchalar ahamiyat kasb etishini yanada chuqur his qildim. Shuningdek, 1944-yilda nemis bosqinchilari tomonidan deyarli yo‘q qilingan Varshava shahrining shu yurt odamlari-ning g‘ayrati va vatanparvarligi tufayli obod bo‘lganini, rasmlarga qarab qadimiy binolar qayta tiklanganini ko‘rib, yanada ilhom oldim, g‘ayrat bilan ishga kirishdim.

Hozir Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida bajarilayotgan “Yevropa fondlarida saqlanayotgan, O‘zbekistonda mavjud bo‘lmagan turkiy qo‘lyozmalarining ma‘lumotlar bazasini va “Yevroturcologica.uz” elektron platformasini yaratish” innovatsion loyihasi rejasini asosida shu yerda ilmiy izlanishlarimni davom ettiryapman.

Dastavval, ilmiy izlanishlarimni Varshava milliy kutubxonasidagi turkiy qo‘lyozmalarimizni o‘rganishdan boshladim. Kuzatishlarimiz asosida Polshada saqlanayotgan Sharq qo‘lyozmalari bo‘yicha 1958-1969-yillar mobaynida 5 jildli katalog-tavsif yaratilgani ma‘lum bo‘ldi. Ungacha barcha fondlardagi tavsiflar tarqo‘q holda bo‘lgan. Ushbu kitoblari polyak olimlari Stefan Strelsin umumiy tahriri va Ananiy Zayonchkovskiy rahbarligida, Taudash Mayda, Zigmunt Abraximovich, Kazimej Rojko, Jan Braun, Stefan Yakobelskiy kabi bir guruh sharqshunoslar tomonidan yaratilgan. Ananiy Zayonchkovskiy katalog-kitob yaratilgan yillarda Polsha Fanlar akademiyasining sharqshunoslik va ayni paytda Varshava universiteti turkologiya bo‘limini boshqargan. Sharq, xususan, turkiy adabiyotga chuqur hurmat va muhabbat olimni ko‘pgina xayrli ishlarga undagan. Ananiy Zayonchkovskiy tashabbusi bilan ko‘pgina milliy dardonomizimiz polyak tiliga tarjima qilingan, o‘rganilgan. 1954-yilda olim Kembrijda o‘tkazilgan XXIII sharqshunoslar xalqaro kongressida Polshada saqlanayotgan Sharq qo‘lyozmalari va ularning tugal bir katalogini yaratish masalasi haqida ma‘ruza qilgan va ma‘ruzada qo‘yilgan maqsad dunyo olimlari tomonidan ijobiy baholangan, keyinchalik bu loyiha jahon ilmiy jamiyati tomonidan moddiy rag‘batlantirilgan.

Katalog kitoblarning I va V jildlari aynan Polsha fondlarida saqlanayotgan turkiy qo‘lyozmalar tavsifiga bag‘ishlangan. Ularda jami 583 ta turkiy qo‘lyozma nomi, muallifi va qisqacha tavsifi berilgan. Turkiy qo‘lyozmalarimiz Varshava, Krakov, Poznan milliy muzeyi va harbiy arxivlarida, Varshava, Vroslav, Yagellon, Torundagi N.Kopernik universiteti kutubxonalari, Varshava milliy kutubxonasida, Polsha sharqshunoslar jamiyati arxivida, M.Sulimovich, J.Reyxmaning Varshavadagi, J.Karpovichning Shetsindagi shaxsiy kutubxonalari — Polshaning jami 21 ta fondida ardoqlab saqlanadi. Tekshirishlarimiz natijasida bular orasida eng ko‘p qo‘lyozma harbiy arxivlarda va Vroslav universiteti kutubxonasida mavjudligi aniqlandi.

— Qo‘lyozmalarining barchasi ham adabiy va tarixiy mavzularni qamrab olganmi? Ular ko‘proq qaysi fanlarga oid?

— Xususan, turkiy qo‘lyozmalar orasida grammatika, tarix, astronomiya, kimyoga oid, didaktik, diniy, qomusiy asarlar, munshaot, Qur‘on sharhlari, ta‘birnomalar, tasavvufiy, tibbiyotga oid asarlar bor. Tarbiyanoma, ibratnomalar, she‘riy devonlar, manogiblar, falsafa, ilohiyot, yuridik qonunnomalar, hikoyatlar, duolar, she‘riyat nazariyasiga oid asarlar, arab-fors-turkiy, chig‘atoy-turk, turk-lotin, turk-fransuz, turk-polyak lug‘atlari ham borligi aniqlandi. Didaktik asarlar orasida bugungi

kunimiz uchun ham har qachongidan ko‘ra zarur bo‘lgan “Fazilatnoma”, “Ibratnoma”, “Risolari farosat”, “Risolari adolat” kabi qo‘lyozmalarni ko‘rdik, ularni tabdil qilish va tezroq xalqimizga yetkazish taraddudidamiz.

— Hozirgacha mavjud ma‘lumotlar asosida eng qadimgi devon kimga tegishli ekanini ayta olasizmi?

— She‘riy devonlar ichida eng qadimiyasi turkiy xalqlarning zabardast shoiri va mutafakkiri, ozarbayjon, fors va arab tillarida ijod qilgan Muhammad Sulaymon Fuzuliyga tegishli ekani ma‘lum bo‘ldi. Varshava universiteti kutubxonasida saqlanayotgan ushbu devon shoir vafotidan atigi 20 yil o‘tib, 1576-yilda ko‘chirilgan.

Shoirning eng qadimgi devoni 1572-yilda ko‘chirilgan bo‘lib, mazkur qo‘lyozma Ozarbayjon Fanlar akademiyasi huzuridagi Fuzuliy nomidagi Qo‘lyozmalar instituti fondida saqlanadi. Devonning 1581-yil ko‘chirilgan nusxalaridan biri O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida saqlanadi. Rossiya sharqshunosligiga bag‘ishlangan doktorlik dissertatsiyamni yozish chog‘ida Sankt-Peterburg fondlarida Fuzuliy devonining 11 ta nusxasi borligi aniqlangan edi, ammo ular XVII-XIX asrlarda ko‘chirilgan. Demak, shoirning Polshada saqlanayotgan devoni hozirgacha topilganlari ichida ikkinchi qadimiyasi hisoblanadi. Fuzuliy devonlarini har gal o‘qishga chog‘langanimda shoirning mana bu misralari yodimga tushadi:

Guliston sari qo‘yung kitobin bob-bob, ey gul,

Xati rayhon ila jadval kechib, gulzora yozmishlar...

Darhaqiqat, shoir misralari xati rayhonda yozilgani bois, juda dilbar va xushma‘nodir. 1973-yilda polyak olimasi Stanislava Rinkevich UNESCO moddiy ko‘magi asosida Fuzuliy ijodiga bag‘ishlangan kitobni nashr qildirdi (Suleymanoğlu Mehmed Fuzûlî Haszyszi i Wino z turz przeł Stanisława Plaskowicka Rymkiewicz). Keyinchalik bu kitob olimo Gulyor Abdullabekova tomonidan rus tiliga o‘g‘rilgan, muallif so‘zboshida Fuzuliy ijodining Polshada o‘rganilishi masalasiga to‘xtalgan.

2012-yilda Ozarbayjon hukumati va Fanlar akademiyasi sa‘y-harakati bilan ushbu devonning nusxasi olingan, ammo hali boshqa devonlar bilan qiyoslab o‘rganilmagan.

Bizga berilgan qisqa vaqtdan unumli foydalanib, qo‘lyozmaning ayrim betlarini rasimga olishga muvaffaq bo‘ldik. Qo‘lyozma 125 varaq, har sahifasi 11 qator, mumtoz an‘anaga mos debocha bilan boshlangan, g‘azal, muxammas, musaddas, ruboiy va boshqa janrdagi she‘rlardan iborat. Qo‘lyozma ancha uringan, muqovaning ba‘zi joylari teshilgan, qayta yopishtirilgan varaqlar mavjud.

Galdagi izlanishlar Fuzuliyning Polshada saqlanayotgan devonini to‘liq o‘rganishni, boshqa devonlari bilan qiyoslashni, fuzuliyshunoslar diqqatini bu masalaga qaratishni taqozo etadi.

Ikki yil davomida Yevropa davlatlaridagi izlanishlarim asosida amin bo‘ldimki, Rumiy, Navoiy, Bobur, Fuzuliy, Ogahiy va boshqa mashhur shoirlarimiz yaratgan o‘lmas asarlar turkiy xalqlarning umumiy intellektual ma‘naviy boyligidir. Men ko‘rgan fondlarning birortasida ular o‘zbek, turkman yoki ozarbayjon shoiri deb ajratilmagan, “Turkiy qo‘lyozmalar” umumiy nomi ostida saqlanadi. Turkiy tili davlatlar hamkorlik kengashining qator vazifalarida ham umurturkiy dardonomizini aynan birlashib o‘rganish masalasi ko‘ndalang qo‘yilgan.

Innovatsion loyihamiz asosida izlanishlarni davom ettirar ekanmiz, kelgusida loyiha davomida qo‘lga kiritiladigan ilmiy yutuqlar va natijalar ushbu yo‘nalishda amalga oshiriladigan yuzlab ilmiy tadqiqot ishlari uchun asos bo‘lib xizmat qilishiga ishonamiz.

“Yangi O‘zbekiston” muxbiri, Muxtasar TOJIMAMATOVA suhbatlashdi.

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalar tahririyati” DUK

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Qabulxona: (71) 233-56-33

Devonxona va e‘lonlar: (71) 233-70-98

E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun ubunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari choq etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul. Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Nashr indeksi — 236. Buyurtma G-946.

43555 nusxada bosildi.

Hajmi — 3 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A2.

Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turok ko‘chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Yunus Bo‘ronov
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz: 100029,
Toshkent shahri,
Matbuotchilar ko‘chasi, 32-uy

Topshirildi — 00:00